

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida
UDK (371,90)

“Korreksion pedagogika” kafedrası

Yuldasheva Saodat O'tkurovna

**«Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning talaffuz malakalarini
yakka mashg'ulotlarda shakllantirish »**

Mutaxassislik: 5A 111901 – Surdopedagogika

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Himoya qilishga ruxsat

Magistratura bo'limi boshlig'i
_____M.Esonov

2014 y «____»iyun

“Korreksion pedagogika”

kafedrası mudiri, p.f.n., dot
_____SH.Amirsaidova

Ilmiy rahbar: P.f.n.,dot.

_____ L.Nurmuhamedova

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1.bob. Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz malakalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari	
1.Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz malakalarini shakllantirish muammosini maxsus pedagogikada o'rganlik holati.....	11
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqining psixologik-pedagogik tavsifi.....	22
1-bob bo'yicha qisqacha xulosa.....	37
2.bob. Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz malakalarini rivojlanganlik darajalari	
1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni talaffuz malakalarini rivojlanganlik darajasini o'rganish metodikasi	39
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz malakalarining xususiyatlari	41
2-bob bo'yicha qisqacha xulosa.....	51
3.bob. Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz malakalarini shakllantirishning shart-sharoitlari	
1. Tajriba-sinov o'tkazish metodikasi, maqsad va vazifalari, bosqichlari va tamoyillari.....	54
2. Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz malakalarini shakllantirish va ularning natijalari.....	64
3-bob bo'yicha xulosa.....	82
Umumiy xulosa	84
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	86

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan davrni sarhisob qilsak, hukumatimiz tomonidan inson manfaatlarini ko'zlash va himoyalash jarayonida jamiyatimizning alohida yordamga muhtoj qatlamiga jiddiy e'tibor qaratib kelinayotganini kuzatamiz. BMTning bolalar muammolari bilan shug'ullanuvchi YuNISEF tashkilotining ijtimoiy monitoring natijalarida ham O'zbekiston bu borada o'ziga xos yutuqlarga erishayotgan davlatlardan biri ekanligi ko'rsatiladi¹. Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan davrni sarhisob qilsak, hukumatimiz tomonidan inson manfaatlarini ko'zlash va himoyalash jarayonida jamiyatimizning alohida yordamga muhtoj qatlamiga jiddiy e'tibor qaratib kelinayotganini kuzatamiz. BMTning bolalar muammolari bilan shug'ullanuvchi YuNISEF tashkilotining ijtimoiy monitoring natijalarida ham O'zbekiston bu borada o'ziga xos yutuqlarga erishayotgan davlatlardan biri ekanligi ko'rsatiladi². BMT ma'lumotlariga ko'ra dunyo miqyosida nogiron bolalar ko'rsatgichi 450 millionga yaqin. YuNESKO ma'lumotlariga qaraganda esa, ular orasida alohida yordamga muhtoj bolalar hammasi bo'lib 200 million atrofida ekan. Prezident I.A.Karimov aytganlaridek³: «Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'ladi, qudratli yurtning farzandlari sog'lom bo'ladi». Har bir mamlakatda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya tizimi negizida muayyan maqsadlar yotadi. Istiqlol vazifalari esa bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimi mazmunini yangilashni talab etadi. Bu esa ijtimoiy tarbiya bilan oilaviy tarbiyani mazmunan uzviy bog'lash zaruratini keltirib chiqaradi. Maxsus korrekstion pedagogika umumiy

¹ Николаева Т.В. О международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы сурдопедагогики XXI века» // Дефектология. – Москва, 2007. – № 3. – С.87-92.

² Николаева Т.В. О международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы сурдопедагогики XXI века» // Дефектология. – Москва, 2007. – № 3. – С.87-92.

³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.-23.bet.

pedagogikaning tarkibiy qismi bo'lganligi uchun, bu vazifalar ushbu sohaning ham ustuvor vazifalariga aylandiki, ularning amalga oshirilishi maxsus pedagogikani oilaviy tarbiya va ijtimoiy tarbiya bilan uzviy bog'lashning yangi usul va yo'llarini izlab topish, bu yo'lda ilmiy-amaliy izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Mamlakatimizda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining sog'lom tengqurlari qatori milliy ruhda tarbiyalanishlari, aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy jihatdan kamol topishlari, jamiyatdagi ijtimoiy hayotga mustaqil, etuk fuqarolik darajasida tayyor bo'lib etishishlari masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ushbu vazifalarni hal etishda so'zlashuv nutqi markaziy o'rinni egallaydi.

Ma'lumki, til vositasida inson muloqotga kirishadi – fikr almashadi, axborot oladi, bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi. Jamiyatda tilni o'zlashtirish jarayoni kishilarning o'zaro nutqiy faoliyati (kommunikastiyasi) sharoitida amalga oshadi. Ushbu jarayonda insonning eshitish faolligi o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, u so'zlashuv nutqining shakllanishi va rivojlanishidagi bosh omillardan biridir. Shunga ko'ra ham ushbu masala jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida yashab o'tgan olim va pedagoglarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Zamonaviy maxsus ta'lim tizimining nazariy asoschisi L.S.Vigotskiy eshitishning buzilishi oqibatida yuzaga kelgan soqovlik – insoniy nutqning mavjud bo'lmasligini keltirib chiqarsa, o'z navbatida, nutqni egallay olmaslik umumiy madaniy rivojlanishga katta salbiy ta'sir ko'rsatishini alohida qayd etadi⁴. Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini atroflicha o'rgangan R.M.Boskis eshitish analizatori funkstiyasining nisbatan oz buzilishi – shivirlashni idrok etish imkoniyatining chegaralanishi ham bola nutqining me'yorda rivojlanishiga, buning oqibatida mantiqiy tafakkurining shakllanishiga to'sqinlik qilishini ko'rsatib o'tadi⁵.

⁴ Зикеев А.Г. Развитие речи слабослышающих учащихся.– М. : Педагогика, 1996. – 240 с.

⁵Боскис Р.М., Коровин К.Г., Синяк В. А. Формирование грамматического строя языка у тугоухих учащихся. – М.: Просвещение, 1955. –130 с.

Zamonaviy surdopedagogika sohasidagi qator yutuqlar so'nggi yillarda E.I.Leongard, E.G.Samsonova (1991), N.D.Shmatko, T.V.Pelinskaya (2003), I.V.Koroleva, V.I.Pudov, O.V.Zontova (2001), A.D.Salaxova, N.V.Kochegarova (2001), V.N.Svodina (1998) kabi etuk olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari bilan bog'liq. Ularning tibbiyot hamda pedagogika sohasidagi yutuqlardan keng foydalangan holda olib borgan izlanishlari eshitishida muammosi bo'lgan bolalar abilitatsiyasi va reabilitatsiyasi darajasining yuqorilashuviga, eshitish va nutq muammosining erta korrektsiya qilinishi orqali erta ijtimoiy moslashuviga samarali ta'sir ko'rsatmoqda⁶. Eshitishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim-tarbiyasi muammolarini tadqiq qilish L.S.Vigotskiy, R.M.Boskis, K.G.Korovin, V.A.Sinyak, A.G.Basova, S.F.Egorov, A.G.Zikeev, S.A.Zikov, A.I.Dyachkov, E.V.Mironova, N.G.Morozova, B.D.Korsunskaya, E.I.Leongard, M.K.Sheremet, N.D.Shmatko, L.A.Golovchist kabi rus olimlarining diqqat markazida bo'lib keldi. Ushbu olimlarning olib borgan tadqiqotlari natijasida eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ham, xuddi sog'lom tengqurlari kabi, ijtimoiy shaxs bo'lib etishishlari uchun barcha imkoniyatlarga ega ekanliklari hamda ulardagi mavjud kuchli imkoniyatlarni ishga solish nutqni rivojlantirish asosida amalga oshirilishi lozimligi isbotlandi⁷. Bolalarning nutqni egallab borishlari sari ularda ijtimoiy (hayotiy) malakalarning shakllanishiga oid imkoniyatlar kengayib boraveradi. Aniqrog'i, faoliyat asosida rivojlantiriluvchi nutq ijtimoiy me'yorlarni egallashning zaruriy shartidir. B.D.Korsunskaya, M.K.Sheremetlar zaif eshituvchi bolalar nutqiy muammolarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar nechog'li erta boshlansa, ularning hayotga, ya'ni ijtimoiy moslashuviga shu qadar erta muvaffaq bo'lishini ta'kidlasalar, E.I.Leongard, E.G.Samsonova, N.D.Shmatko, T.V.Pelinskaya, L.A.Golovchist bu jarayonda

⁶ Специальная педагогика. Под ред. Н.М.Назаровой.– М.: Академия, 2004. – 400 с.

⁷ Султонова Д. Агар фарзандингиз эшитмаса...// Bola va zamon. – Тошкент 2006. – № 2. – Б.28-30.

asosiy, ya'ni hal qiluvchi o'rinni ota-onalar va oila a'zolari egallashlarini uqtiradilar.

Milliy surdopedagogikada olib borilgan tadqiqotlarda N.Sh.Bekmurodov , X.M.Gaynutdinov, F.J.Alimxodjaeva, U.Yu.Fayzieva, N.H.Dadaxo'jaeva, F.U.Qodirova eshitishda muammosi bo'lgan o'quvchilar ta'lim-tarbiyasi jarayonini takomillashtirish orqali ularning ijtimoiy moslashuvlari darajasini ko'tarishning yo'l va vositalari asoslab berildi.Maxsus ta'lim sohasida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar nutqini rivojlantirish, boshlang'ich sinf zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish masalalari umumiy tarzda o'rganilgan⁸, ammo yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz malakalarini shakllantirish muammolari ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganilmagan.Tadqiqotlarni o'rganish va ularni tahlil etish natijasida yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilari talaffuz malakalarini shakllantirish tizimli yondashishni talab qiladigan o'ta murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-pedagogik muammodir, degan xulosaga keldik. Maxsus maktablar sharoitida yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz malakalarini shakllantirishning samarali shakl va usullarini izlab topish, yaratish hozirda dolzarbligi bilan muhimdir.

Tadqiqotning maqsadi: Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz malakalarini shakllantirish jarayonini o'rganish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish tashkil etadi

Tadqiqotning vazifalari:

- Mavzu bo'yicha maxsus pedagogik, maxsus psixologik adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish;

⁸ Qodirova F.U. Boshlang'ich sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini shakllantirish.: Ped. fan. nomz. dis. avtoref...– Toshkent:TDPU. 2006. – 20 b.

- Yakka mashg'ulotlarda Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz malakalarini shakllantirish bo'yicha amaliyotdagi mavjud ahvolni o'rganish va tahlil qilish

- Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz malakalarini shakllantirish samaradorligini oshirish yo'l va usullarini aniqlash, metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti: Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar

Tadqiqot predmeti: Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz malakalarini shakllantirish bo'yicha pedagogik ish jarayoni

Tadqiqotning ilmiy farazi: shundan iboratki, agar:

- Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz malakalarini shakllantirish xususiyatlarini har tomonlama o'rganilsa;

- Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz malakalarini shakllantirish jarayonida zaif eshituvchi bolalarning ruhiy va jismoniy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari xisobga olinsa;

- Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz malakalarini shakllantirishning samarali yo'llari, qulay shart-sharoitlari yaratilsa;

- Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining bolalarni talaffuz malakalarini shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilsa, maktab, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni talaffuz malakalarini shakllantirishning samaradorligi oshadi.

Tadqiqotning metodlari:

- mavzuga doir maxsus pedagogik, maxsus psixologik adabiyotlarni o'rganish;

- Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining bolalarni talaffuz malakalarini shakllantirish jarayonini kuzatish va tahlil qilish;
- Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz malakalarini shakllantirish bo'yicha ish tajribasini o'rganish;
- Maxsus maktab o'quvchilarining tibbiy- pedagogik xujjatlarini o'rganish va tahlil qilish;
- Maxsus maktabda yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz malakalarini shakllantirish holatini aniqlash maqsadida eksperiment o'tkazish;
- savol-javob, suhbat, so'rovnoma, kuzatish;

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Dissertatsiyaning natijalaridan, tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalardan defektologiya fakulteti professor-o'qituvchilari va talabalari, xalq ta'limi tizimining barcha maxsus muassasalarining tarbiyachi, defektologlari, ota-onalar foydalanishlari mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz malakalarini shakllantirish jarayoni ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berildi.

yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining bolalarni talaffuz malakalarini shakllantirish bugungi holati va uni takomillashtirish yo'llari o'rganildi, ilmiy — pedagogik nuqtai nazardan ochib berildi.

yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz malakalarini shakllantirish bo'yicha pedagogik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot bazasi: Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106 - sonli maxsus maktab-internat.

Tadqiqotning metodologik asosini dialektik bilish nazariyasi va umuminsoniy qadriyatlar, sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish yuzasidan qarashlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning nutq va risolalarida ta'lim to'g'risida ilgari surgan fikrlari, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Maxsus ta'lim konstepstiyasi», mazkur hujjatlarning asosiy g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy hujjatlar, ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy va uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatish prinsiplari, mavzuga doir falsafiy, ilmiy-pedagogik, ijtimoiy-psixologik manbalar, o'quv-metodik qo'llanmalar, maxsus pedagogikaga oid ilg'or tajribalar tashkil etadi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

Birinchi boskich: — tadqiqot muammosi bo'yicha tegishli adabiyotlar, maxsus maktabdagi ilg'or ish tajribalari o'rganildi. Natijada tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ilmiy farazi va metodlari aniqlandi xamda dastlabki materiallar to'plandi.

Ikkinchi boskich: — tadqiqot dasturi, nazariy asosi, mazmuni aniqlandi va ishning eksperimental asoslarini tasdiqlovchi tajribalar metodikasi tayyorlandi.

Uchinchi boskich: — ta'kidlovchi eksperiment asosida yakka mashg'ulotlarda Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarning talaffuz malakalarini shakllantirish xususiyatlari o'rganildi

Tadqiqot natijalarining xaqqoniyligi va asoslanganligi — qo'yilgan muammoni hal etishga kompleks va ilmiy metodologik yondoshuvning to'g'riligi, tadqiqot vazifasi hamda o'rganilayotgan jarayonning mazmuniga nisbatan tanlangan metodlarning tajriba — sinov ishlari natijasida miqdor va sifat jixatdan tasdiqlanganligi bilan isbotlanadi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

- yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilaring talaffuz malakalarini shakllantirish masalasi ta'limiy muammo ekanligi;
- yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilaring talaffuz malakalarini shakllantirishning psixologik— pedagogik xususiyatlari;
- yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilaring talaffuz malakalarini shakllantirish takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar

Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

**1-bob. Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlashg'ich sinf o'quvchilaring
talaffuz malakalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari**
**1.1.Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlashg'ich sinf o'quvchilaring talaffuz
malakalarini shakllantirish muammosini maxsus pedagogikada o'rganlik
holati**

Nutq kishilarning tug'ma qobiliyati bo'lmay, bolalar o'sib, rivojlangan sayin nutq ham asta-sekin shakllanib, mukammallashib boradi. Bolalar nutqining maromida bo'lishi uchun bosh miya po'stidagi nutq markazi to'liq rivojlangan bo'lishi, ularning eshitish, ko'rish, ta'm bilish, hid bilish, teri sezgisi ham etarli darajada rivojlangan bo'lishi lozim. Chunki sezgi a'zolari atrof-muhit bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Agar bola yangi taassurotlar olib turmasa, harakatlari va nutqi uchun sharoit yaratib berilmasa, uning jismoniy va ruhiy rivojlanishi tormozlanadi.

Sog'lom bola ilk yosh davrida ehtiyojini guvranish, g'udurlash kabi nutqning sodda ko'rinishi, bir yoshlariga kelib esa dastlabki so'zlar orqali qondiradi. Uning nutqi avvalo atrofidagi kattalarning nutqiga taqlid qilish asosida rivojlanadi. Bola dastlab o'z hohish va fikrlarini aniq grammatik tizimdan mustasno bo'lgan alohida so'zlar yordamida ifoda etsa, 2 yoshlarga yaqin nutqi til tizimi hamda uning qonuniyatlariga asoslangan holda tarkib topa boshlaydi. U til tarkibiga oid hech qanday qonun-qoidalarini bilmasa-da, so'zlarni hech bir xatosiz turlaydi, tuslaydi, so'z birikmalarini tuza oladi, hatto-ki, so'z birikmalari qonunlariga mos ravishda mutlaqo yangi so'zlarni tuza oladi. Bola tilning murakkab tizimini eshitish yordamida o'zlashtiradi: talaffuz malakalari – ko'pgina so'zlarning tovush tarkibini, ulardan foydalanishni o'zlashtiradi, so'zlar va gaplarning grammatik jihatdan o'zgarib borishi va hosil bo'lishi bilan bog'liq holda yuzaga kelayotgan ma'nolarning mazmunini tushuna boshlaydi. Nutq,

dastlab ijtimoiy hodisa, muloqot vositasi sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, asta-sekin atrof olamni anglash, faoliyatni rejalashtirish vositasiga aylana boradi⁹ Bola ulg'aygan sari murakkab bo'lgan til birliklarini egallaydi: lug'atni, frazeologik birlikmalarni o'zlashtiradi, so'z tuzilishi, so'z o'zgarishi va so'z birikmasi, shuningdek, turli-tuman sintaktik birliklar qonuniyatlarini egallab boradi. Tilning ushbu vositalaridan u murakkablashib borayotgan bilimlarini o'zgalarga etkazish, faoliyati jarayonida atrofni o'rab turgan insonlar bilan muloqotga kirishish uchun foydalanadi.

Nutqni tushunish, bola hali so'zlamasdan avval sodir bo'lib, o'z rivojlanishida turli bosqichlar – hajmiga ko'ra o'sib borish va sifat jihatdan o'zgara boruvchi jarayonlarni bosib o'tadi. Nutqni tushunish deb ataluvchi jarayon tovush signaliga nisbatan reakstiya berish emas, balki uning ma'nosiga bo'lgan munosabatni bildiradi. 2-3 yoshdagi bolaning faol nutqi uning tajribasidan kelib chiquvchi va muloqot doirasidagi nutqdan iborat bo'lsa-da, nafaol nutqi nafaqat undovchi (topshiriqli) nutqni idrok etishni, balki atrof olamni idrok etish vositasi bo'lgan hikoya-nutqni ham tushunish imkonini beradi. 2 yoshga kirgan bolaning faol lug'at zaxirasi 250-300 so'zni tashkil etadi. Bu davrda bolaning ma'noli nutqi ham rivojlanib boradi. U fikrlarini bir necha so'zlardan iborat bo'lgan sodda gap orqali etkazishga erishadi. 3 yoshga kirgan bola faol lug'atining tarkibi 800-1000 ta so'zni tashkil etsa, 4 yoshga kirganida – 1500-2000 ta, 5 yoshga etganida esa 2500-3000 ta so'zni tashkil etadi¹⁰

Nutq faqatgina atrofdegilar bilan muloqotga kirishish uchungina emas, balki, eng avvalo, o'z ehtiyojlarini qondirish, o'rab turgan olamni anglash, o'z xatti-harakatlarini rejalashtirish uchun vositadir. Uni egallash voqelikni anglash usuli

⁹ Сурдопедагогика. Под ред. Е.Г.Речицкой. – М.: Владос, 2004.– 65 с

¹⁰ Суровцева А. Воспитание воли ребенка в семье // Дошкольное воспитание. – Москва, 2008. – № 3. – С.8 -14

sanalgani bois bolaning nutqiy faoliyati, o'zgalar bilan muloqoti va o'z fikrlarini bildirishi uchun etarli sharoit yaratish muhim hisoblanadi ¹¹.

Bola tomonidan nutqning o'zlashtirilishi o'z tarkibiga bir necha bosqichlarni oluvchi murakkab jarayon bo'lib, dastlabki bosqich o'z ichiga murojaat etilgan nutqni tushunish (nafaol nutq)ni oladi. Ushbu davrning amaliy ko'rinishi bolaning aytilgan so'zga javoban xatti-harakatini bildiradi. Bola nutqining tarkib topishi va rivojlanish jarayoni, va, eng avvalo, tilni egallashi hamda grammatik tizimining shakllanishi, asosan, turli-tuman ko'rinishdagi gaplarni o'zlashtirish orqali amalga oshadi. Ushbu jarayon o'z tarkibiga uch asosiy davrni oladi:

1) so'z-o'zaklardan tashkil topuvchi gaplarni o'zlashtirish davri. Bu davr ikki bosqichdan iborat bo'lib, o'z ichiga bir so'zli hamda bir necha so'zlardan iborat (asosan, ikki so'zdan tashkil topgan) gaplarni o'zlashtirishni mujassamlaydi;

2) so'zlarni turlash va turlash kabilarni o'zlashtirish bilan ajralib turuvchi tilning morfologik tizimini o'zlashtirish davri;

3) sintaktik kategoriyalar va ular tashqi ifodasining shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan gapning grammatik tizimini o'zlashtirish davri.

Birinchi hamda ikkinchi davr o'rtasida keskin chegara mavjud bo'lib, ikkinchi va uchinchisining o'rtasida aniq chegara mavjud emas. Ushbu tashqi ko'rsatkichlar ichki ko'rsatkichlar bilan chambarchas bog'liq: so'zlarni o'zgartirish qonuniyatlaridan foydalanish malakasiga ega bo'lmay turib, gapni to'g'ri tuzish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin emas. Chunki gap tuzishning asosini so'zlarni bog'lash emas, balki xususiy va umumiy grammatik ma'nolarning shakllarini o'zaro bog'lash modeli tashkil etadi.

Tilning fonetik, leksik, grammatik qonuniyatlarini egallash uchun yuqori darajadagi eshitish o'tkirligi talab qilinadi. Oddiy sharoitlarda o'sib ulg'ayotgan bolada eshitish yordamida atrofdagilar nutqidan asosiylarini ajratib olish

¹¹Выготский Л.С. Проблемы дефектологии.— М.: Просвещение, 1995.—57 с.

ko'nikmalarining shakllanib borishi shunga o'xshash shaxsiy jummalarni tuza olish malakalarining shakllanishiga asos bo'ladi. Akustikani idrok etish nuqsoniga ega bo'lgan bolaning nutqida tovushlarni farqlash, grammatik shakllarni kuzatib borish, taqqoslash imkoniyatidan mahrum bo'lishidan kelib chiqqan holda agrammatizm yuzaga keladi¹².

Zaif eshituvchi bolalarning tallafuz malakalarini rivojlantirish yo'llari hamda usullarini belgilash tadqiqotimizning maqsadini tashkil etar ekan, nutqning lingvistik va psixologik-pedagogik asoslarini ko'rib chiqmay turib, ushbu muammoni hal qilib bo'lmaydi. Ushbu yo'nalishda ish olib borgan barcha tadqiqotchilar til va tafakkur birligi to'g'risidagi g'oyaga tayanadilar. Bu g'oya psixologiyaga oid tadqiqotlarda atroflicha ko'rib chiqilgan. Nutqiy rivojlanishning tavsifi hamda uning o'ziga xos jihatlari ko'plab lingvistik, psixologik va metodik tadqiqotlarning etakchi g'oyasini tashkil etgan bo'lib, tadqiqotchilarning fikricha, muayyan kommunikativ vazifani bajaradigan, bitta nutq ob'ekti bilan ravon hamda nisbatan tugal fikrni ifoda etgan iboralar guruhi og'zaki ravon nutq birligi bo'lib xizmat qiladi. Tilshunoslik nuqtai nazardan ravon nutq u yoki bu darajada muhim mustaqil qismlarga bo'linadigan «nutq qismi» hisoblansa, psixologiya fanida so'zlovchining fikrini, xohish-istagini bildiradigan har qanday nutq, ma'lum ma'noda, uning o'zi uchun ravon nutq hisoblanadi. Og'zaki ravon nutq kishilarning bir-birlari bilan muloqot qilish vositasi bo'lgan tashqi, ohangdor va talaffuz etiladigan nutq turiga mansubdir. F.R.Qodirova va R.M.Qodirovalarning fikricha, ravon nutq kishilarning muloqotini va o'zaro bir-birlarini tushunishlarini ta'minlovchi mazmunan keng yoyilgan fikr bo'lib, og'zaki nutq «matnlari» bevosita so'zlash jarayonida yaratiladi.

Har qanday nutqning ravonligini ko'rsatuvchi asosiy belgilar qatoriga, eng avvalo, uning qismlari o'rtasidagi ma'noli aloqalar, so'ngra esa, gap qismlari

¹² Коррекционное обучение как основа личностного развития аномальных дошкольников / Под ред. Л.П.Носковой. – М.: Педагогика, 1989. – 16 с.

o'rtasidagi mantiqiy aloqalar va, nihoyat, uchinchidan, so'zlayotgan shaxs fikrining ifoda etilishidagi tugallanganlik kiradi.

M.I.Lisina til vositasida muloqotning eng kichik birligi sifatida miqdor va ma'no mezonini qabul qiladi hamda nutq bo'lagi (fragmenti) sifatida bir butun nutq jarayonini tashkil qiladigan 4-5 ta to'liq gaplar ko'rinishidagi to'liq matnni ajratib ko'rsatadi. Demak, ilmiy adabiyotlarda «ravon nutq» tushunchasiga o'zaro bir-birini to'ldiruvchi hamda va boyituvchi turli-tuman ta'riflar beriladi.

Ravon og'zaki nutqning shakllanishi hamda uning asosida nimalar mavjud bo'lishi, uning manba va qonuniyatlari qandayligi masalasini ko'rib o'tishimiz lozim. Tadqiqotchilar bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan gaplardan tashkil topgan situativ (vaziyatbop) nutq sekin-asta kontekstli nutqqa tomon rivojlanib borishini ko'rsatib o'tadilar.

L.S.Rubinshteynning ta'kidlashicha, og'zaki nutq bu vaziyatbop va kontekstli nutqdir. Nutq dastlab vaziyatli tusga ega bo'lib, bola ulg'aya borgani sayin nutqning tarkibi va vazifasi o'zgara boradi hamda ravon kontekstli nutq shaklini egallab boradi. Bolaning nutqi avval o'ziga eng yaqin borliq bilan chambarchas bog'liq bo'ladi: u kundalik turmushda bola mavjud bo'lgan va butunlay bog'liq bo'lgan vaziyat (situatsiya) dan tug'iladi va unga to'liq bo'ysunadi. Shuningdek, bu nutq og'zaki shaklga ega bo'lib, suhbatdoshga qaratilgan bo'lishi hamda iltimos, istak, savolni bildirishi, ya'ni vaziyatli shaklga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Bola kontekstli nutqni ta'lim jarayonida egallab boradi. Unda yangi nutq vositalariga, yangi tuzilish shakllariga ehtiyoj yuzaga keladi. Ilk bolalik paytidagi nutqda vaziyatga oid (situativ) bog'liqlik ustunlik qilib, bolaning so'zlab berayotgan vaziyati (situatsiyasi) suhbatdoshiga ma'lum bo'lsagina, qanday fikr etkazilmoqchi bo'layotganini tushunadi. Sekin-asta nutq kontekstli bo'lib boradi, ya'ni uni muayyan kontekstda tushunsa bo'ladi. Ravon nutqning shakllanishi, funktsiyalarining o'zgarishi atrofdegilar bilan bo'ladigan muloqotning mazmuni, shart-sharoitlari va shakllariga bog'liqdir.

Ravon og'zaki nutqning dialogdan monologga qarab rivojlanishini o'rgangan N.I.Jinkin va M.I.Lisinalarning ta'rifiga ko'ra, dialogik nutq birlamchi va osonroq nutq shakli bo'lib, u situativ (vaziyatli) hamda holat, suhbat mavzusiga bog'liq holda «qo'llab-quvvatlanadigan» ko'rinishga ega. Ya'ni dialog ikki yoki bir necha shaxslar tomonidan amalga oshiriluvchi nutqiy xatti-harakat bo'lib, bu paytda suhbatdoshlar o'rtasidagi o'zaro axborot almashish jarayonida ular tomonidan imo-ishoralar, yuz ifodalari, nutq ohangidan ham foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi¹³.

Monologik nutq keng fikr bildirishdan iborat bo'lganligi sababli ilmiy adabiyotlarda «ravon nutq» deb yuritiladi. Monologik nutq suhbatdoshga uzoq muddatli va maqsadga yo'naltirilgan ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan kontekstli yoki kengaytirilgan nutq turi bo'lib, og'zaki monologda nutqni «qo'llab-quvvatlash» hodisasi zaiflashadi: nutq qo'yilgan savolga shunchaki oddiy javob emas, balki fikrning reja bo'yicha kengaytirilgan bayoni bo'lib, bu erda so'zlovchi nafaqat o'zining alohida fikrini, balki nutqi, monologini butunicha dasturlaydi. Demak, monologik nutqning eng muhim xususiyati uning dasturlashtirilganidir. Monologik va dialogik nutqning rivojlanishiga oid ushbu qarashlar bolalarda ravon nutqning yuzaga kelishini tushunib etish uchun zarur sanaladi. Shu sababli A.A.Leontevning nutqdan xatti-harakatlarni rejalashtirish va boshqarish uchun foydalanish bosqichidan avvalroq undan kommunikativ maqsadlarda foydalanish bosqichi keladi, degan fikri g'oyat muhimdir.¹⁴

Dialog jarayonida bolada o'zi bildirayotgan fikrning mantig'ini kuzatib borish kabi muhim ko'nikma shakllanadi. Dialogik nutqqa to'g'ri o'rgatish monologik nutqning yuzaga kelishi va rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Ravon og'zaki nutq, dialogik nutq shaklidan farqli o'laroq, monolog tusiga ega va shu sababli avvaldan ma'lum tayyorgarlikni talab qiladi. N.I.Jinkin

¹³ Шматко Н.Д., Пельмская Т.В. Если малыш не слышит.— М.: Просвещение, 2003. — 25 с.

¹⁴ Корсунская Б.Д. Воспитание глухого дошкольника в семье. — М.: Просвещение, 1990. — 12 с.

aniqlashicha, o'z fikrini og'zaki ifoda etish uchun nutq tuzishda bolalar duch keladigan qiyinchiliklar asosan quyidagi sabablarga bog'liq bo'lar ekan:

1) og'zaki nutq fikrning shu vaqtning o'zida so'z bilan ifodalanishini talab qilishi sababli bolalarda faol lug'atning etishmasligini keltirib chiqaradi. Chunki: «Og'zaki nutqda so'z tanlashga vaqt yo'q. Xotirada bor tanish so'zlar bilan ish ko'rishga to'g'ri keladi»;

2) asosiy vazifasi «gaplarni og'zaki tuzish paytida aytib bo'lingan va yana talaffuz qilinishi kerak bo'lgan so'zlarni xotirada ushlab qolish» dan iborat bo'lgan operativ xotiraning kuchsizligi .

N.F.Vinogradova, M.I.Lisina, A.M.Borodich, F.R.Qodirova va R.M.Qodirovalar dialogik nutq bolalar bilan suhbatlashish jarayonida, kundalik muloqot hamda maxsus tayyorlangan suhbatlar jarayonida shakllantirib borilishi lozimligini ta'kidlagan holda suhbatlarning tasnifi, ularga qo'yiluvchi maqsadlar hamda ularni olib borish metodikasini keng yoritib berganlar.

F.R.Qodirova va R.M.Qodirovalar hikoya qilishga o'rgatishning eng samarali usul va vositasi o'yinchoqlar bilan olib boriluvchi mashg'ulotlar ekanligini ko'rsatib o'tsalar, N.F.Vinogradova bolalarning ravon nutqini atrof olam bilan tanishtirish jarayonida rivojlantirish lozimligini ta'kidlaydi.

M.R.Lvov to'g'ri talaffuzni rivojlantirishda syujetli rasmlar majmuasidan foydalanishning yuqori samara berishini o'zining uzoq yillar davomida olib borgan keng tadqiqoti asosida isbotlab berdi.

O'qitish natijasi ko'plab sabablarga bog'liq bo'lib, avvalo, u bolaga nutqiy muloqotni ta'minlab beradigan ijtimoiy muhit hisoblanadi. Bola umumiy rivojlanishining saviyasi, maktabda muvaffaqiyatli o'qib keta olishi ko'p jihatdan uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi faolligiga, shuningdek, uni o'rab turgan insonlar tomonidan qo'llanayotgan nutqning rivojlanganlik darajasiga bog'liq sanaladi. Shu sababli ta'lim-tarbiya jarayonida ana shunday rivojlantiruvchi muhitni o'z vaqtida tashkil etish g'oyat muhim sanaladi.

Bolalar to'g'ri tallafuzni rivojlanishi masalasiga ularning tafakkuri hamda bilishga bo'lgan qiziqishi bilan bog'liq holda qarash lozim. Nutq va tafakkurning o'zaro bog'liqligi muammosi psixologik va pedagogik tadqiqotlarning diqqat markazida turgan doimiy masalalardan biri sanaladi. Bu borada izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar tafakkur va nutqning amaliy faoliyat jarayonida shakllanishini ta'kidlab, til, kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida, aqliy faoliyatning alohida turi ekanligini ko'rsatadila, tushuncha so'zlarsiz mavjud bo'lolmaydi, tushunchalar vositasidagi fikrlash nutqiy fikrlashdan tashqarida mavjud bo'lolmaydi»

Nutqning yuzaga kelishi va uni anglab etish mexanizmlari bir-biriga teng bo'lmagan jarayon bo'lib, bu qoidalar maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasida o'zining to'liq ifodasini topgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ona (rus) tilini o'zlashtirishda nutqiy va aqliy jihatlarning o'zaro aloqalarini o'rgangan F.A.Soxin va A.M.Borodichlar til va nutq hodisalarini anglab etish ko'nikmalarini shakllantirish zarurligini qat'iy asoslab bergan holda, ravon nutq ona tilini o'zlashtirishda bola erishgan barcha yutuqlar (tovush tizimi, lug'at tarkibi, grammatik tuzilishini o'zlashtirish)ni o'zida qamrashi hamda bunda ravon ifodaning tuzilishi maqsadli, avvaldan rejalashtirilgan, o'ylab qo'yilgan bo'lishi kerakligini ta'kidlaydilar ¹⁵.

Til vositasida mantiqiy fikrlash birdaniga yuzaga kelmaydi. Ona tilini o'zlashtirishning dastlabki davrlarida bola tafakkurining boshlan-g'ich shakllarini ko'rgazmali-amaliy va ko'rgazmali-obrazli tafakkur turlari tashkil etib, keyinchalik ular so'z vositasida mantiqiy tafakkur bilan o'zaro aloqaga kirishadi. U esa asta-sekin leksik, grammatik va boshqa nutq vositalari negizida amalga oshiriladigan fikriy faoliyatning etakchi shakliga aylanadi hamda tilning intellektual funkstiyasi tomon rivojlanib boradi. Shu sababli A.A.Leontev: «Bola o'z nutqida kattalarning

¹⁵Запорожец А.В. Значение ранних периодов детства для формирования детской личности / Принцип развития в психологии. Сб. науч. тр.– М., ИДП АПН, 1998. – С. 43.

nutqini shunchaki qaytarib yoki undan nusxa ko'chirib, ya'ni til vositasida ifodalangan fikrlarni shunchaki generastiya qilib qo'ya qolmaydi. Bola nutqining rivojlanishi bu, eng avvalo, undagi muloqot usulining rivojlanishidir», - deb ta'kidlaydi¹⁶. A.V.Zaporojets va S.N.TSeytlin ham bu borada olib borgan kuzatuvlari asosida yuqoridagi fikrlarni qo'llab-quvvatlaydilar¹⁷. Jumladan, S.N.TSeytlin ushbu fikrni davom ettirgan holda: «tilni o'zlashtirish til vositalari va me'yorlarini intuitiv tarzda anglab etish asosida kattalar nutqi namunalariga shunchaki taqlid qilish, ularni qaytarib qo'ya qolish bilan emas, balki, eng avvalo til umumlashmalarining rivojlantirilishi hamda til hodisalarining elementar anglab etilishi bilan belgilanadi», - deb xulosalaydi¹⁸ [148; 21].

To'g'ri tallafuz malakasini rivojlantirish rivojlantirish til va nutqning ayrim hodisalarini eng sodda shaklda bo'lsa-da, anglab etishni o'z ichiga oladi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy ta'lim-tarbiyasiga nisbatan bir paytning o'zida ham nutqni rivojlantirish, ham ona tilini o'qitish haqida so'z yuritish lozim.

Muassasada olib boriluvchi ta'lim jarayoni pedagog va tarbiya-lanuvchilar o'rtasidagi nutqiy muloqotga asoslanishi sababli uning bosh tarkibiy qismi (komponenti) ni bolalar to'g'ri tallafuz malakasini tashkil etadi. Bola oila va bolalar bog'chasida qadam-baqadam atrofdagilar uchun tushunarli ravishda atrofni o'rab turgan predmet va yon-atrofida sodir bo'layotgan, shuningdek, o'zi ishtirok etayotgan voqea va hodislar haqida fikr hamda taassurotlarini tizimli ravishda nutqiy ta'rif orqali etkazib borishni o'rganib boradi. Shu bois uning umumiy tarbiyasida, xususan, nutqni rivojlantirish borasida pedagog va otalarning o'rtasida rejali ravishda olib boriluvchi hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish zarurdir.

¹⁶Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – М.: Просвещение, 1999. – 12 с.

¹⁷Цейтлин С.Н. Язык и ребенок. Лингвистика детской речи. – М.: Владос, 2000. – 40 с.

¹⁸Цейтлин С.Н. Язык и ребенок. Лингвистика детской речи. – М.: Владос, 2000. – 46 с.

Demak, bolalar to'g'ri tallafuz malakasini rivojlantirish muammosi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlarning asosini tashkil qiladi. Ularning to'g'ri tallafuz malakasini rivojlantirish va o'rgatish muammosini hal qilishga o'ziga xos munosabat bildirgan bo'lsalar-da, aksariyatlari to'g'ri tallafuz malakasini shakllantirish hamda rivojlantirishda tizimli yondashuvning, maxsus tashkil etilgan ishning zarurligini birdek ta'kidlaydilar. Ana shular asosida quyidagicha xulosalar chiqarishimiz mumkin:

- bola nutqi til hodisalarining generastiyasi bo'lib, kattalar nutqini idrok etish va o'z nutqining faolligi natijasida rivojlanadi;

- til va nutq ruhiy rivojlanishning turli yo'nalishlari (tafakkur, xotira, his-tuyg'ular, xayolot) yadrosini tashkil etadi;

- to'g'ri tallafuz malakasini rivojlanishning etakchi yo'nalishini til umumlashmalari, til va nutq hodisalarini eng sodda tarzda anglab etishni shakllantirish masalasi tashkil qiladi;

- bolaning tilni mustaqil kuzatish, to'g'ri tallafuz malakasini rivojlantirishi uchun shart-sharoitlar maxsus ravishda tashkil etiluvchi til hodisalarini anglashga yo'naltirilgan tizim orqali ta'minlanadi.

1.2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqining psixologik-pedagogik tavsifi

Inson va atrof muhit doimiy ravishda aloqada bo'lib, u ko'rish, eshitish, teri, ta'm, hid bilish, harakat analizatorlari orqali amalga oshiriladi.

Eshitish analizatori insonning barcha a'zolari ichida eng ahamiyat-lilaridan sanalib, uning asosiy vazifasi nutqni idrok qilishdan iboratdir. To'laonli eshitish nutq shakllanishining omili sanaladi. Nutq orqali esa insonning so'z-mantiqiy tafakkuri, umumiy va ruhiy rivojlanishi sodir bo'ladi. Moddiy dunyodagi narsa va hodisalar ongimizda aks etib, bular so'z shaklida ifodalanadi, til hodisalari vositasida namoyon bo'ladi. Inson o'zi ko'rgan va ta'sirlangan buyum va hodisalarni so'z yordamida nomlab, mazmuni haqidagi taassurotlarini obrazlar, fikrlar, tushunchalar, tasavvurlar ko'rinishida anglash, ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Har qanday buyum, hodisaning miyada aks etishi va ongda mustahkam o'rnanib qolishida nutq etakchi vosita hisoblanadi. Shuningdek, u tafakkur quroli, muloqot jarayonida fikrni ifodalash, biror narsani bildirish, anglatish va ta'sir ko'rsatish quroli bo'lib ham xizmat qiladi. Fikrlash qobiliyati nutqiy rivojlanish zahirida paydo bo'lishi sababli u inson tafakkurining rivojlanish darajasini belgilab beradi.

Eshitish idrokining buzilishi oqibatida insonning nutqni egallay olmasligi, shu bois jamiyat a'zolaridan yakkalanib qolishi uning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishida qator muammolarni yuzaga keltiradi. Bular o'zaro bir-biriga tobe bo'lgan turli sabablarga bog'liq bo'lib, bu xususda L.S.Vigotskiy: «Ijtimoiy tarbiya nutqning rivojlanmaganligiga, nutqning rivojlanmasligi jamoa (kollektiv)dan yakkalanib qolishga, jamoa (kollektiv)dan ajralib qolish esa, o'z navbatida, ijtimoiy tarbiya hamda nutqning rivojlanishini tormozlaydi», - deydi¹⁹.

¹⁹ Выготский Л.С. Основы дефектологии. В 6-ти т. – М.: Педагогика, 1983. Т.5. – 38 с.

Surdopedagogika tarixiga nazar tashlasak, turli davrlarda eshiti-shida muammosi bo'lgan bolalarni tadqiqot ob'ekti sifatida o'rgangan pedagog va olimlardan J.Kardano, V.I.Fleri, J.Itar, Ya.T.Speshnevlar ular orasida u yoki bu holda murojaat etilgan nutqni tushuna oladigan, qisman lug'at boyligiga ega bo'lgan, ba'zan, hatto, sodda jumlar tuza oladigan bolalar borligini, agar nutq ularga qarata balandlatilgan holda aytilsa, bunday bolalar ta'lim-tarbiyasining barcha muammolari hal etilishi mumkinligini ta'kidlab, eshitishi qisman buzilgan bolalarga, ular nutqining o'ziga xos rivojlanishiga alohida e'tibor qaratganliklariga guvoh bo'lamiz²⁰. V.I.Fleri bola shaxsining shakllanishi uchun atrofidagi yaqinlari va, ayniqsa, onasi alohida g'amxo'rlik, e'tibor ko'rsatishlari zarurligi hamda kar bola nutqining rivojlanishi uchun ilk yosh davri alohida o'rin tutishini ta'kidlagan holda: «Kar-soqov bola qancha kichik bo'lsa, uning o'zlashtirish layoqati shuncha yuqori bo'ladi», - deb yozadi ²¹. Olim, shuningdek, dastlabki so'zlarni bola ko'rish asosida taqlidan o'zlashtirishi lozimligini alohida qayd etadi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar nutqiy rivojlanish masalalari bir necha asrlar mobaynida ko'plab o'qituvchi va metodistlarning e'tiborini jalb qilganiga qaramay, bu muammoning echimiga, ya'ni maxsus maktablardagi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish bo'yicha yondashuvlarning yangi yo'nalish olishiga L.S.Vigotskiyning maxsus ta'lim tizimi masalalarini yoritib bergan qator asarlari turtki berdi. Olim maxsus maktablardagi og'zaki nutqni rivojlantirishga mo'ljallangan usul bolaning sarmazmun hayoti, uning qiziqishlari bilan bog'liq bo'lmagan sharoitda olib borilishiga e'tibor qaratib, nutqni ijtimoiy hayotda ishtirok etmagan holda egallash, qirg'oq bo'yida turib suzishni o'rganish holatiga qiyoslab, ijtimoiy muhit hamda uning tuzilishi har qanday tarbiya tizimining pirovard hamda hal qiluvchi omili ekanligini alohida qayd etadi: «Bola hayotini shunday tashkil etish lozimki, unga nutq zarur va qiziqarli bo'lsin. Ta'limni bola qiziqishlariga qarshi emas, ushbu qiziqishlar tomon yo'naltirish lozim.

²⁰ Басова А.Г., Егоров С.Ф. История сурдопедагогтики. – М.: Просвещение, 1984. – 95

²¹ Басова А.Г., Егоров С.Ф. История сурдопедагогтики. – М.: Просвещение, 1984. – 95

Umuminsoniy nutqqa nisbatan ehtiyojni yuzaga keltirish zarur, shundagina nutq paydo bo'ladi. Nutq muloqotga kirishish va fikrlash asosida, murakkab hayotiy sharoitlarga moslashish natijasida yuzaga keladi»²².

L.S.Vigotskiy ushbu sharoitni yaratishda sog'lom (me'yordagi) bolaning nutqiy rivojlanish bosqichlariga tayangan holda ish ko'rish lozim ekanligi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: «Birinchii planga, eng avvalo, bolaning bola ekanligi va shundan so'nggina kar-soqov ekanligi holati qo'yiladi. Bu shuni anglatadiki, bola, eng avvalo, umumiy qiziqish, layoqat, shuningdek, me'yordagi bola yoshi qonuniyatlariga muvofiq holatda o'sishi, rivojlanishi va tarbiyalanishi hamda xuddi shu jarayonda nutqni egallab borishi lozim. Bolalar o'zlarining muayyan sifat va ko'nikmalarini rivojlantirishga ehtiyoj sezishlari lozim. Ular o'zlarini boshqa ko'pchilik bolalar va kishilardan farqli ekanliklarini his qilmasliklari, ularga tenglasha olmasliklariga ishonch hosil qilmasliklari lozim»²³.

Yuqoridagilar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, eshitishda muammosi bo'lgan bolalarni tallafuzga o'rgatish kabi masalalar ijtimoiy tarbiya zaminidagina o'zining to'g'ri echimini topadi.

R.M.Boskis eshitishda muammosi bo'lgan bolalar tallafuzga o'rgatish samaradorligiga erishishdagi dastlabki qadam ushbu toifadagi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini tushunishdan boshlanishi lozim, deb hisoblab, I.P.Pavlovning «Analizatorlar faoliyatining birligi», L.S.Vigotskiy-ning «Nuqsonning murakkab tuzilishi» hamda «Ta'lim-tarbiya va rivojlanish mutanosibligi» psixologik ta'limotlariga tayanadi. Shuningdek, u eshitish va nutqning o'zaro aloqadorlikda rivojlanishini keng o'rgangan holda bunday bolalar rivojlanishidagi o'ziga xosliklarni keltirib chiqaruvchi qator holatlarga asoslangan pedagogik tasnifni ishlab chiqdi²⁴. Ushbu tasnifga ko'ra, birinchidan, yosh boladagi eshitish analizatori faoliyatining buzilishi katta yoshdagilarnikidan farqli

²² Выготский Л.С. Основы дефектологии. В 6-ти т.— М.: Педагогика, 1983. Т.5. — 68 с.

²³ Выготский Л.С. Основы дефектологии. В 6-ти т.— М.: Педагогика, 1983. Т.5. — 80 с.

²⁴ Боскис Р.М. Глухие и слабослышащие дети. — М.: Владос, 2001 — 36 с.

namoyon bo'ladi. Ya'ni katta yoshdagi kishilarda eshitish muammosi paydo bo'lgunga qadar, ularning nutqi, mantiqiy tafakkuri va shaxsi shakllanib ulgursa, ilk yoshda orttirilgan eshitish muammosi bolaning me'yorda rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Ikkinchidan, eshitishda muammosi bo'lgan bolalarning o'ziga xos rivojlanishlarini to'g'ri tushunish uchun, ushbu holatda nutqni mustaqil egallay olish imkoniyatini, ya'ni eshitish va nutqning o'zaro aloqadorligini inobatga olish katta ahamiyatga ega. Bir tomondan, eshitishning buzilishi nutqning me'yorda rivojlanishiga to'sqinlik qilsa, ikkinchi tomondan eshitishning me'yorga yaqinroq faoliyati bolaning nutqiy rivojlanish darajasiga bog'liq. Bolaning nutqiy darajasi qancha yuqori bo'lsa, eshitish qoldig'idan foydalanishi shuncha yuqori bo'ladi. Til, uning lug'at zaxirasi va grammatik tizimini inson qay darajada egallagan bo'lsa, uning o'z eshitishidan foydalanish layoqati ham shu darajada ko'p saqlangan bo'ladi. Nutqiy muloqot tajribasiga ega bo'lgan bolalar tanish bo'lgan so'z va jummalarni ma'nosiga ko'ra tushunishlari sababli, murojaat etilgan nutqni yaxshiroq idrok etish imkoniyatiga ega bo'lib, ular atrofdagilarda yaxshi eshituvchi sifatida taassurot qoldirishlari mumkin. O'z navbatida, bolaning eshitish qoldig'i qancha yaxshi saqlangan bo'lsa, unda atrofdagilar nutqiga taqlid qilishi asosida mustaqil ravishda nutqni egallab borish imkoniyati shuncha yuqori bo'ladi. Uchinchidan, bolaning eshitish qoldig'idan nutqni egallash uchun foydalanish imkoniyati uning eshitish muammosini baholash mezonini hisoblanadi. Shunga ko'ra eshitishi to'liq yo'qolgan (kar) bolalar bilan eshitishi qisman buzilgan (zaif eshituvchi) bolalarni chegaralashda aynan eshitish va nutqiy rivojlanish omillari hisobga olinadi.

Karlik eshitishning turg'un yo'qolishi bo'lib, unda mustaqil holda nutqni egallash, hatto quloqqa yaqin bo'lgan masofadagi nutqni ravshan idrok etishning imkoniyati bo'lmaydi. Total (to'liq) karlik, xuddi total ko'zi ojizlik uchramagani kabi, juda kam uchraydigan hodisadir. Ko'pincha karlikda baland nutqiy bo'lmagan tovushlarni, quloq suprasiga yaqin masofadagi ba'zi nutqiy tovushlarni idrok etish darajasida bo'lgan eshitish qoldiqlari saqlanib qoladi.

Audiometriktekshiruv eshitishning 80 db. (destibel – tovushni idrok etishni o'lchashda qo'llanuvchi o'lchov birligi)dan yuqori darajada yo'qolganini ko'rsatadi.

Zaif eshituvchilik eshitishning turg'un pasayishi bo'lib, unda ushbu eshitish qoldig'i asosida nutqiy zaxirani minimal holatda mustaqil ravishda egallash, murojaat etilgan nutqni quloq suprasiga yaqin masofada idrok etish imkoniyati bo'ladi. Audiometr tekshiruvi eshitishning 80 db.dan kam bo'lmagan pasayishini ko'rsatadi.

Eshitish muammolari holatidagi nutqning rivojlanish darajasi quyidagi to'rt omilga tobedir:

1. eshitishning darajasi;
2. eshitish muammosining sodir bo'lish vaqti;
3. bolaning individual xususiyatlari;
4. eshitish muammosi sodir bo'lgandan so'ng bola uchun yaratilgan pedagogik sharoit.

Shundan kelib chiqqan holda har ikki guruhdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar, o'z navbatida, yana ikkitadan guruhga bo'linadi:

Karlar:

- 1) tug'ma yoki ilk yosh davrida eshitish qobiliyati yo'qolgan va nutqni egallay olmagan kar bolalar;
- 2) eshitish qobiliyati kech yo'qolib, nutqi saqlanib qolgan kar bolalar.

Zaif eshituvchilar:

- 1) nutqida qisman chetga chiqishi (nutqining grammatik tizimida me'yordan chetga chiqishlar: qo'shimchalarni noto'g'ri qo'llash yoki tushirib qoldirish, ba'zan talaffuz muammolari) bo'lgan zaif eshituvchi bolalar;
- 2) chuqur nutqiy muammolarga ega bo'lgan (lug'at zaxirasi o'ta chegaralangan, nutqi qisqa, noto'liq so'zlardan, grammatik tizimi so'z-gapdan, bo'g'in-so'zlar qatoridan iborat) zaif eshituvchi bolalar.

Olim bu boradagi izlanishlarini davom ettirar ekan, har qanday bolaning rivojlanishi muloqotda, faoliyatning turli shakl va ko'rinishlarida amalga oshishi omilini hisobga oladi. Tadqiqotlarning natijasi shuni ko'rsatdi-ki, kar va zaif eshituvchi bola bir-biridan keskin farq qiladi. Zaif eshituvchi boladagi inson uchun o'ta zarur bo'lgan analizator – eshitish faoliyatining to'liq emas, qisman buzilishi nutqning birmuncha shakllanishiga imkon beradi. Lekin bunday yo'l bilan nutqni egallashning o'ta chegaralanishi bola tomonidan tushuncha va tasavvurlar (nutqning keyingi idroki va tushunilishi)da o'zgachalikni yuzaga keltiradi. Zaif eshituvchi bolaning nutqi rivojlanmasdangina qolmay, balki buzilgandir ham. Masalan, lug'at zaxirasining kamligi bilan bir qatorda so'zlarning boshqa ma'noda qo'llanishi, grammatik tizimning rivojlana olmasligi bilan bir qatorda ular ma'nolarining noto'g'ri tushunilishi kuzatiladi. Bularning barchasi bilish faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi: taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish kabi psixik jarayonlar zaif eshituvchilarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Nutqiy muloqot bolaning shaxs sifatida rivojlanishida hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Zaif eshituvchi bola nutqining o'ziga xos rivojlanishi oddiy sharoitlarda ilm asoslarini egallashiga to'sqinlik qiladi. Shu sababli ham bu toifadagi bolalar anomaliyasi tuzilishida nutq birinchi o'ringa qo'yilib, maxsus tashkil etilgan ta'lim jarayonida markaziy o'rinni nutqni reja asosida shakllantirish masalasi egallashi lozim.

Qator tadqiqotlar zaif eshituvchi bolalar tallafuzga o'rgatish xususiyatlari hamda bunday o'ziga xoslikka mos kelmaydigan mavjud o'qitish jarayonini taqqoslash natijasida tilni maxsus o'qitish muammolarining ilmiy jihatdan hal etilishi: uni psixologik, lingvistik, psixolingvistik, umumdidaktik hamda metodik nuqtai nazardan ishlab chiqilishiga asos bo'lib xizmat qildi²⁵. Ushbu tavsiya etilgan

²⁵ Боскис Р.М., Коровин К.Г., Синяк В. А. Формирование грамматического строя языка у тугоухих учащихся. – М.: Просвещение, 1995. – 10 с.

metodikalar asosida yangi tur – zaif eshituvchi bolalar maktablari uchun qator darsliklar va ularni olib borish imkonini beruvchi metodik tavsiyalar yaratildi.

Zamonaviy surdopedagogikaning nazariy asoschilari eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishlarining muhim omili – tallafuzga o'rgatish ishlarining samaradorligi bevosita tarbiyalanuvchining oila a'zolari, xususan, ota-onalarning farzandlari bilan muntazam ravishda shug'ullanishlariga bog'liqligini alohida qayd etadilar. Jumladan, S.A.Zikov til o'qitishdagi yuqori muvaffaqiyatlar faqatgina maxsus muassasalarda tashkil etilgan nutqiy muhit orqali emas, balki bevosita ota-onalar va atrofdagilarning ishtiroki orqali ta'minlanishini uqtirsa, R.M.Boskis: «Nutqqa o'rgatish ishlarini o'qituvchi ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshirishi lozim», -deb ta'kidlaydi²⁶.

Aynan yangi davr surdopedagogikasida oila va maxsus ta'limning bola tarbiyasi borasidagi mushtarakligi zarurati anglandi: ota-onalar surdopedagoglar tomonidan belgilangan yo'l va ko'rsatmalarsiz farzandlarining tarbiyasida va, xuddi shunday tarzda, surdopedagoglar ota-onalar ishtirokisiz o'z faoliyatlarida muvaffaqiyatga erisha olmaydilar²⁷. Ilk yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim muassasalari asoschilari tomonidan yaratilgan maqola hamda metodik tavsiyalar kar va zaif eshituvchi bolalar ota-onalariga o'z farzandlarining tarbiyasini qanday tashkil etishlari, nutqini rivojlantirish yo'llari kabi masalalarni yoritib berdi.

A.I.Dyachkov oila va ijtimoiy tarbiya maqsadlarining mushtarakligi, oilaning maxsus maktabgacha tarbiya muassasasi bilan hamkorligi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar tarbiyasining majburiy sharti ekanligini ta'kidlasa, B.D. Korsunskaya kar bolani maktabgacha tarbiya muassasasiga tayyorlash va unga joylashtirilgandan so'ng ota-onalarga qo'yiladigan talablar, ta'lim-tarbiya borasida maslahatlar beradi. Olim bola nutqining rivojlanishida faoliyatning turli

²⁶ Боскис Р.М. Учителю о детях с нарушениями слуха. – М.: Просвещение, 1988. – 12 с.

²⁷ . Боскис Р.М. Глухие и слабослышащие дети. – М.: Владос, 2001 – 31 с.

ko'rinishlari hamda harakatni shakllantirishning tutgan o'rni beqiyosligini alohida ta'kidlab, ushbu boradagi faoliyat tizimini yoritib berishda asosiy e'tiborini nutq o'stirish (rivojlantirish) masalalari: lug'at zaxirasini kengaytirish, so'zlar mazmuni ustida olib boriladigan ishlar; bolani aqliy va ahloqiy rivojlanishini ta'minlovchi omil – daktil nutqiga atrofdagilar bilan muloqot o'rnatish quroli sifatida o'rgatish, shuningdek, bolaning og'zaki nutqini shakllantirish ishlariga qaratadi²⁸.

So'nggi yillarda E.I.Leongard, E.G.Samsonova; N.D.Shmatko, T.V.Pelinskaya, A.Yu.Xoxlova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ilk hamda maktabgacha yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar oilaviy tarbiyasi nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish, boyitishga katta hissa qo'shdi hamda bu yo'nalishning qudratli imkoniyatlarga ega ekanligini yana bir bor isbotlab berdi. Ota-onalar ishtirokida umumrivojlantiruvchi hamda korrekstion ishlarning ilk yoshdan boshlanishi natijasida bolalar umumiy rivojlanishlarida katta yutuqlarga erishiladi²⁹. Oila sharoitida nutqiy muhitning tashkil etilishi, bola nutqining rivojlanishi (talaffuz qilish malakalari, nutqning eshitish-ko'rish idroki, lug'at zaxirasining shakllanishi, so'zlashuv nutqi asosidagi muloqotni o'rnatish olishi,) ga zamin bo'lib xizmat qiluvchi nutqiy eshituvning rivojlanishiga imkoniyat tug'diradigan to'g'ri tanlangan ovoz kuchaytirgich moslamalaridan foydalanish, eshitmaydigan bolani eshituvchi tengdoshlari jamoasiga olib kirish uning erta ijtimoiy uyg'unlashuvini ta'minlaydi. Ushbu yo'nalish orqali eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ommaviy turdagi maktabgacha ta'lim muassasalariga yoki maktabgacha tarbiya muassasalari qoshida tashkil etilgan maxsus guruhlarda kamol topadilar. Bu bolalar, shuningdek, ma'lum vaqtlarda ushbu metodika asosida ish olib boruvchi surdopedagog mutaxassislar tomonidan tashkil etiluvchi yakka mashg'ulotlarga ham qatnaydilar. Shuni ta'kidlash lozimki, bunday tashkil

²⁸ Корсунская Б.Д. Воспитание глухого дошкольника в семье. – М.: Просвещение, 1990. – 19 с.

²⁹ Леонгард Э.И. и др. Я не хочу молчать! – М.: Просвещение, 1990.–112 с.

etilgan tarbiyada «asosiy yuk» ota-onaning zimmasiga yuklanadi hamda surdopedagog yo'naltiruvchilik va yordam beruvchilik funkstiyasini o'taydi. Shubhasiz, bu metodika ota-ona yoki bola tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi boshqa oila a'zolariga mas'uliyatli vazifani yuklash bilan birga, ulardan pedagogik uquv, ko'p vaqt hamda kuch-quvvatni talab qilishi sababli hozirgi kunda barcha oilalar ham bunday mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyor emaslar.

Shu sababli biz S.A.Zikov va R.M.Boskis fikrlariga qaytib, maxsus ta'lim jarayonida ota-onalar emas, balki surdopedagoglar tomonidan amalga oshiriluvchi, ular tomonidan rejalashtiriluvchi ishlar eng muhim omil ekanligini asosiy g'oya sifatida qabul qilamiz hamda ota-onalarning bu jarayonda surdopedagog va tarbiyachi tomonidan amalga oshiriluvchi ishlarning davomchilari, ular yordamida tuzilgan reja asosida ish yurituvchi sanalishlarini ta'kidlaymiz.

Respublikamiz hukumati tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy islohotlarda yosh avlodning tarbiyasi, xususan, uning oilaviy tarbiyasiga munosib omil sifatida qaraladi. Jumladan, Prezidentimiz I.A.Karimov oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida yosh avlodning ta'lim-tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab: «Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila... kelajak nasllar qanday inson bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor», «...farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi»,- degan fikrlarni bildiradi³⁰

Istiqlolga qadar respublikamizning eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoni original dastur va darsliklar asosida olib borilmay, Rossiya maxsus muassasalari yoki O'zbekistondagi umumta'lim, ba'zan esa, aqli zaif bolalar muassasalari uchun mo'ljallangan dastur va darsliklarni biroz o'zgartirib ishlash asosida tashkil etilar edi. Maxsus tizim amaliyoti stixiyali ravishda tizimdagi ishning shu yo'nalish asosida olib borilishi

³⁰ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6 – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 49 б.

orqali rivojlana bordi. Tabiiy-ki, bir tomondan til tizimining to'g'ri kelmasligi, ikkinchi tomondan me'yorda rivojlanayotgan bolalar, uchinchi tomondan aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar xususiyatlariga tayangan holda tuzilgan dastur hamda darsliklar asosida ishni tashkil qilish eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini bermas edi.

Respublikamizda surdopedagogikaning ilmiy asoslanishi o'tgan asrning 80-yillaridan boshlandi. Milliy surdopedagogikamizda olib borilgan qator tadqiqotlar mamlakatimizda mavjud eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maxsus maktab-internatlar ta'lim-tarbiya jarayonini hududiy sharoitlar, o'zbek tili xususiyatlariga mos holda takomillashtirish yo'l va vositalarini ilmiy jihatdan asoslab berishga yo'naltirildi³¹.

Surdopedagogika sohasida ilk bor N.Sh.Bekmurodov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasida hududimizga mos ravishda maxsus maktab-internatlar kun tartibi, o'quv jarayonini tashkil qilishda hisobga olinishi lozim bo'lgan talablar ishlab chiqilgan bo'lsa, X.M.Gaynutdinovning ilmiy izlanishlari natijasida ilk bor O'zbekiston sharoitida eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslarni kasbiy – mehnatga tayyorlash, keyingi mehnat faoliyatlari jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar, bunday shaxslar ijtimoiy moslashuvlari darajasini ko'tarish yo'llari ochib berildi³²

F.D.Alimxodjaevaning uzoq yillik amaliy tajribasi maxsus o'qitish jarayonida didaktik materiallardan foydalanishning tabaqalangan metodikasini ishlab chiqish

³¹ Бекмуродов Н.Ш. Влияние жаркого климата на работоспособность учащихся школ глухих. Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М.: НИИД АПН. 1989. – 17 с.

³² Гайнутдинов Х.М. Профориентационная и социальная адаптация выпускников школ глухих в условиях Узбекистана.: Автореф. дис...канд. пед. наук. – М.: НИИД АПН. 1990. – 18 с.

hisobiga zaif eshituvchi o'quvchilar eshitish idrokini rivojlantirish tizimini takomillashtirish yo'llarini ilmiy jihatdan asoslab berishiga asos bo'ldi ³³.

U.Yu.Fayzievaning ilmiy-tadqiqot ishi zaif eshituvchi bolalarga ona tilini o'rgatish muammolarini hal qilishga qaratilgan ilk tadqiqot bo'lib, unda maktabga tayyorgarliksiz kelgan zaif eshituvchi bolalarning dastlabki nutqiy imkoniyatlari (so'z boyligi: faol va nafaol nutqi), eshitishining yo'qolish sabablari va vaqti o'rganildi, bunday bolalarni savodga tayyorlash va savod o'rgatish metodikasi ilk bor nazariy jihatdan asoslab berildi. Ya'ni tadqiqotchi zaif eshituvchi o'quvchilarga savod o'rgatish davrida zarur sanalgan omil - harflarni o'tish ketma-ketligini ishlab chiqib, ushbu nazariy xulosalari asosida «Alifbe» darsligini yaratdi ³⁴.

N. X. Dadaxo'jaeva ilk bor zaif eshituvchi o'quvchilarning ko'p xonali sonlar ustida arifmetik amallarni bajarishlaridagi xususiyatlar, ushbu jarayonda o'quvchilarning nutqi va fikrlashlariga oid tayyorgarlik holatini o'rganib, ko'p xonali sonlar ustida arifmetik amallar bajarishga o'rgatish bo'yicha ish usullari hamda metodlarni nazariy jihatdan asoslab berdi ³⁵.

F.U.Qodirova ilmiy tadqiqotida eshitmaydigan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limi amaliyotidagi kamchiliklari tahlil qilinib, ularni bartaraf

³³ Алимходжаева Ф.Д. Роль дидактического материала в процессе развития речевого слуха слабослышащих школьников с глубоким речевым недоразвитием.: Автореф.дис. ... канд. пед. наук. – М.: НИИД АПН. 1992. – 15 с.

³⁴ Файзиева У.Ю. Заиф эшитувчиларни саводга тайёрлаш ва савод ўргатиш.: Пед. фан. номз. дис. ... автореф. – Тошкент: ТДПИ. 1994. – 18 б.

³⁵ Дадаходжаева Н.Х. Методика обучения слабослышащих школьников арифметическим действиям над многозначными числами.: Автореф. дис...канд. пед. наук. – Ташкент: ТГПИ. 1995. – 12 с.

³⁵ Кодирова Ф.У. Бошланғич синф қар ва заиф эшитувчи ўқувчилар нутқини

etishning samarali usul va yo'llari aniqlandi hamda so'zlashuv nutqini shakllantirishning omil va bosqichlari belgilab berildi ³⁶.

Demak, ko'rib chiqilgan tadqiqotlardan U.Yu.Fayzieva hamda F.Qodirovalarning ishlarigina kar va zaif eshituvchi bolalar maktab-internatlarida o'zbek tili o'qitish tizimini ilmiy asoslab berishga qaratilgan. Maktab yoshidagi bolalarni tadqiqot o'ekti sifatida tanlab olgan har ikki olim ularning maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishiga maktabgacha yosh davrida zamin yaratilishi lozim ekanligini qayd etadilar. U.Fayzieva: «Erta ilk yoshidan korrekstion ta'sir ko'rsatish orqali bu og'ir asoratlar kamaytirilishi yoki butunlay bartaraf etilishi mumkin...Ota-onalar imkon topgan holda uyda alohida sharoit yaratib, eshitmaydigan farzandlari bilan o'zlari shug'ullanishlari mumkin. Buning uchun ular surdopedagog mutaxassis bilan hamkorlikda ish olib borishlari lozim», - degan fikrlarni keltirsa³⁷, F.U.Qodirova kar o'quvchilarga o'z fikrini erkin ifodalashni o'rgatish ota-onalarning farzandlari ta'lim-tarbiyasi oldidagi mas'uliyati ekani va bu ta'lim jarayonida muhim omillardan hisoblanishini ta'kidlaydi.

O'zbekistonda surdopedagogikaning yondosh tarmoqlari – oligofreno-pedagogika, logopediya sohasidagi L.R.Mo'minova, R.Shomaxmudova, M.Yu.Ayupova, X.M.Po'latova, D.A.Nurkeldieva, M.P.Xamidova, L.Sh.Nurmuxamedovalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar maxsus ta'lim muassasalarida olib boriluvchi ta'lim-tarbiya jarayonini hududiy sharoitlarni hisobga olgan holda tashkil etish hamda takomillashtirishga qaratildi³⁸

L.R.Mo'minova nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy kamchiliklarini korrekstiyalash ishlarida oilaning tutgan o'rni muhimligini,

³⁷ Файзиева У.Ю. Заиф эшитувчиларни саводга тайёрлаш ва савод ўргатиш.:

Пед. фан. номз. дис. ... автореф. – Тошкент: ТДПИ. 1994. – 15 б.

³⁸ Муминова Л.Р. Теоретические основы коррекционно-педагогической работы по преодолению речевого недоразвития у детей дошкольного возраста.: Автореф. дис. ... д-ра пед.наук. – Ташкент: ТГПУ им.Низами. 1992. – 39 с.

R.Shomaxmudova aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni ikkinchi tilga o'rgatishda nutqning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning hisobga olinishi lozimligini, D.A.Nurkeldieva aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlash muammolarini hal etishda nutq o'stirish ustida olib boriluvchi ishlar muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydilar .M.Yu.Ayupova, X.M.Po'latova va M.P.Xamidovalar maktabgacha yoshdagi bolalar nutqidagi muammolarni bartaraf etish va nutqiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ish turlarini³⁹, L.Sh.Nurmuxamedova ilk bor maxsus maktab-internatning ota-onalar bilan olib boruvchi ishlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berdilar⁴⁰.

Shuningdek, respublikamizda so'nggi yillarda alohida e'tiborga muhtoj bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuvi muammolarining hal qilinishi aholi o'rtasida keng tashviqot ishlarining olib borilishi bilan bog'liqligi tobora chuqur anglanmoqda. Chunonchi, R.Shomaxmudova D.Nurkeldieva, D.Sultonovalar tomonidan yozilgan ilmiy-ommabop maqolalar bunday bolalar bilan oilada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ish tizimini yoritib berishga qaratildi⁴¹.

Adabiyotlar sharhi, maxsus pedagogika sohasidagi qator yutuqlarga qaramay, respublikamizda maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar talaffuz qilish malakalarini keng qamrovli o'rganishning muayyan rejasi ishlab chiqilmaganini, bu esa, o'z navbatida, bunday bolalarga erta korrekstion yordam ko'rsatishning to'g'ri tashkil etilishiga jiddiy to'siq bo'layotganligini ko'rsatdi.

³⁹Аюпова М.Ю. Преодоление фонетико-фонематической недостаточности у детей старшего дошкольного возраста (на материале узбекского языка).: Автореф. дис. ...канд.пед.наук. – М.: МГПУ. 1992.– 16 с.

⁴⁰ Нурмухамедова Л.Ш. Оилада ногирон фарзандни тарбиялашнинг педагогик хусусиятлари.: Пед. фан. номз.дис. ... автореф. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ. 2005. – 22 б

⁴¹ Нуркелдиева Д. Илк ёшдаги болаларни ривожлантириш ва тарбиялаш // Bola va zamon.– Тошкент, 2007. – № 2. – Б. 24.

Birinchi bob yuzasidan xulosa

Eshitish muammosini erta tashxis qilish, ovozni kuchaytirib beruvchi asboblari bilan ta'minlash va jarrohlik yo'li bilan eshitishni qayta tiklash ilk va erta yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalarga pedagogik yordam ko'rsatish masalalarining dolzarbligini asoslab bermoqda. Bu sohada shug'ullangan tadqiqotchilarning har biri nutqning yuzaga kelishi, rivojlanishi va uni o'rgatish muammosiga o'ziga xos munosabat bildirganlariga qaramay, so'zlashuv nutqini shakllantirish va rivojlantirishda tizimli yondashuvning, maxsus tashkil etilgan ishlar tizimining zarurligini birdek ta'kidlaydilar.

Zaif eshituvchi bolalarga zamonaviy ta'lim-tarbiya berish til mohiyatini tushunish ta'limotiga tayanadi. Maxsus maktabda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish ushbu toifa bolalari talaffuz qilish malakalari egallashlarining qonuniyatlari, zaif eshituvchilik psixolingvistik asoslarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Surdopedagogika umumiy pedagogika, psixologiya, psixolingvistika, tilshunoslik, audiologiya ma'lumotlaridan eshitishida muammosi bo'lgan bolalar xususiyatlari, ularning imkoniyatlarini hisobga olgan holda ijodiy foydalanadi. Maktabda bolalar ta'lim-tarbiyasida ularning talaffuz qilish malakalari rivojlantirish masalalariga keng qamrovli yondashish lozim.

Maxsus ta'lim muassasasining jamoa a'zolari, xususan, guruh surdopedagogi va tarbiyachisi tomonidan ota-onalar bilan rejali, muntazam ravishda olib boriluvchi hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish zaif eshituvchi bola talaffuz qilish malakalari shakllantirish va rivojlatirish samaradorligiga erishishning muhim omili sanaladi. Korrekstion-kompensator hamda rivojlantiruvchi tavsifga ega bo'lgan maxsus ta'lim tizimidagi differentsial (tabaqalashtirilgan) hamda yakka (individual) tartibdagi yondashuv eshitishida muammosi bo'lgan bolalar talaffuz qilish malakalari rivojlantirish hamda shakllantirish masalalarini hal etishga qaratiladi.

Respublikamizda maxsus pedagogika sohasidagi qator yutuqlarga qaramay, eshitishida muammosi bo'lgan bolalar talaffuz qilish malakalari keng qamrovli o'rganish rejasining ishlab chiqilmaganligi ushbu toifadagi bolalarga erta korrekstion yordam ko'rsatishning to'g'ri tashkil etilishiga jiddiy to'siq bo'lmoqda.

2-bob. Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarning talaffuz malakalarini rivojlanganlik darajasini o'rganish

2.1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarning talaffuz malakalarini rivojlanganlik darajasini o'rganish metodikasi

Bu o'rinda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilari talaffuz malakalarini rivojlanganlik darajasini tajriba-sinov jarayonida o'rganishga harakat qildik. Qo'yilgan maqsadni hal qilish, mavjud ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlash, shuningdek, tajriba-sinov natijalarini tahlil qilish uchun zaif eshituvchi bolalar talaffuz malakalarini rivojlanganlik darajalarini kompleks tadqiq qilish metodikasining moslashtirilgan varianti yaratildi. Bunda bolalarning yosh va intellektual (aqliy), psixologik xususiyatlarini hisobga olish, rivojlanish, individual, differentsial (tabaqalangan), umumiydan xususiyya, soddadan murakkabga, tizimli va yaxlit yondashuv tamoyillariga ham tayanildi. Tajriba-sinov ishlari Toshkent shahridagi 106-sonli maktab-internatida olib borildi va unda jami 20 nafar ikkinchi sinf zaif eshituvchi o'quvchilar qatnashdilar. Zaif eshituvchi bolalar talaffuz malakalarini kompleks tadqiq qilish 2 bosqichdan tashkil topdi.

I bosqich. Bola haqida anamnestik ma'lumotlarni o'rganish.

Bu bosqichda bolaning shaxsiy hujjatlari asosida eshitish qobiliyati pasayishining taxminiy sabablari, naslida shunday muammoli shaxslar mavjudligi haqidagi ma'lumotlar aniqlandi. Shuningdek, uning tug'ilish vaqtidagi noqulay omillar, dunyoga kelganidan so'ng og'rigan kasalliklari, shunga ko'ra qanday antibiotik dori-darmonlarning qabul qilganligi, so'nggi audiogramma bo'yicha eshitish holatining tahlili kabilarga e'tibor qaratildi

II bosqich Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarning talaffuz malakalarini rivojlanganlik holatini o'rganish.

Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarning talaffuz malakalarini tadqiq qilish metodikasini ishlab chiqishda an'anaviy surdopedagogikada qabul qilingan R.M.Boskisning eshitishida muammosi bo'lgan bolalar, shuningdek, L.R.Mo'minova tomonidan nutqida muammolari bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini tadqiq qilish metodikalariga tayanildi. Ushbu bosqichda o'quvchilarning talaffuz qilish malakalarini, lug'at zaxirasi (faol va nafaol lug'ati) mustaqil nutqini o'rganish nazarda tutildi.

Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarning talaffuzidagi me'yordan chetga chiqishlar, eshitishning pasayishi bilan bog'liq holda, ushbu tovushlar idrokining chegaralanishi oqibatida yuzaga keladi. Shu sababli o'quvchilarning talaffuz malakalari haqidagi dalillarni ularning faol lug'ati, tilining grammatik tizimi, shuningdek, mustaqil nutqini o'rganish jarayonida olingan ma'lumotlarga tayangan holda keltirdik. Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarning lug'at zaxirasini o'rganish uchun so'zlar va ularga mos ravishda tadqiqot o'tkazishda didaktik material bo'lib xizmat qiluvchi rasmiy lug'at tayyorlandi. Luhat zaxirasini o'rganish uchun tanlangan so'zlar o'zbek tilining asosiy lug'at zaxirasiga kiruvchi, bolaning kundalik hayotida atrofdagilar bilan me'yordagi muloqotga kirishish imkonini beruvchi, asosan, predmet nomi, harakati, sifat hamda xususiyatlarini anglatuvchi, yosh davri lug'ati minimumiga mos (bilishi shart hisoblanuvchi), mavzuviy tamoyilga asoslangan so'zlardan tarkib topdi.

Faol lug'atni o'rganishda rasmlar taklif etildi hamda ularning mazmuniga ko'ra savollar berildi (Kim bu? Bu nima? Nima qilyapti? Qanday?). Zaif eshituvchi bolalarga o'ttiz dona rangli rasmlar stol, sher, g'oz, konfet, qo'g'irchoq, bayroq, jo'ja, shar, karam, qor, choy, soat, qovun, buvi, palto, velosiped, bola, daftar, gul, piyoz, olma, parta, samolyot, olma, tarvuz, gul, uy, daraxt, lola, qozon rasmlari taklif etildi hamda ularning mazmuniga ko'ra savollar berildi. Rasm mazmuniga oid berilgan savollarga bolalar tomonidan qanday javob berilgan bo'lsa, qaror-qaydnomalarda shundayligicha hech bir o'zgarishsiz aks ettirildi. Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarning talaffuzidagi me'yordan chetga

chiqishlar, eshitishning pasayishi bilan bog'liq holda, ushbu tovushlar idrokining chegaralanishi oqibatida yuzaga keladi. Shu sababli o'quvchilarning talaffuz malakalari haqidagi dalillarni ularning faol lug'atini o'rganish jarayonida olingan ma'lumotlarga tayangan holda keltirdik

2.2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarning talaffuz malakalarining xususiyatlari

I bosqich - Bola haqida anamnestik ma'lumotlarni o'rganish natijalari.

Zaif eshituvchi bolang'ich sinf o'quvchilarning talaffuzidagi me'yordan chetga chiqishlar, eshitishning pasayishi bilan bog'liq holda, ushbu tovushlar idrokining chegaralanishi oqibatida yuzaga keladi. Shu sababli o'quvchilarning talaffuz malakalari haqidagi dalillarni ularning faol lug'ati, tilining grammatik tizimi, shuningdek, mustaqil nutqini o'rganish jarayonida olingan ma'lumotlarga tayangan holda keltirdik

O'quvchilar shaxsiy hujjatlarini o'rganish asosida olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, tadqiqotda ishtirok etgan bolalar eshitish muammosining kelib chiqishiga ko'ra ham, eshitishining pasayishiga ko'ra ham turli-tuman toifalarni tashkil etdi (1-jadval).

O'quvchilarning 40 % (4nafari) jismoniy sog'lom ota-ona farzandlarini tashkil etgan bo'lsa, 3 % (3 nafar) ining eshitish muammosi, taxminiy sabablarga ko'ra, onaning homiladorlik paytida turli infektsion kasalliklar bilan og'rishi tufayli antibiotik dori moddalarining qabul qilishi natijasida yuzaga kelgani, 3 % (3 nafari) tarbiyalanuvchining ota-onasi sog'lom bo'lsa-da, naslida eshitish muammosi bo'lgan shaxslar bo'lganligi aniqlandi. Eshitishi pasaygan 40 % (4nafari) bolalar hujjatlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, ularda eshitishning pasayishi turli – yiringli, yallig'lanishli, infektsion kasalliklarning o'z vaqtida davolanmay, surunkali avj olishi natijasida yuzaga kelgan. Anamnestik ma'lumotlar tahlili tadqiqotda qamrab olingan bolalar eshitishidagi

muammolarning ota-onalar tomonidan kech aniqlanganini, ko'p vaqtning tibbiy muolajalar uchun sarflanganini, ular tomonidan farzandlarining muassasaga kelguniga qadar nutqni rivojlantirish ishlariga deyarli e'tibor bermaganini ko'rsatdi.

Zaif eshituvchi bolalar maktab-internatlarida eshitishning darajasi 80-85 destibell (db.) gacha pasaygan bolalar tarbiyalanishlari lozim. Audiometrik ma'lumotlarni o'rganish quyidagi xulosalarga kelish uchun asos bo'ldi. Tadqiqotda ishtirok etgan tarbiyalanuvchilarning 30 % (3 nafari) 1- daraja, 30 % (3 nafari) 2 - daraja, 20 % (2 nafari) 3-daraja guruhiga mansubligini ko'rsatdi. Anamnestik ma'lumotlarni o'rganish, shuningdek, muassasalarda eshitish qoldig'ining holatiga ko'ra karlik toifasiga kiruvchi bolalar ham ta'lim-tarbiya olayotganliklarini ko'rsatdi. Ular tajriba-sinov ishida ishtirok etgan tarbiyalanuvchilarning 2 % (2 nafar) ini tashkil etdi.

II bosqich – Boshlang'ich sinf zaif eshituvchining talaffuz malakalarini rivojlanganlik holatini o'rganish natijalari.

Zaif eshituvchi Boshlang'ich sinf o'quvchilar talaffuz malakalarini tadqiq qilish natijalari.

Faol lug'atni o'rganishda rasmlar taklif etildi hamda ularning mazmuniga ko'ra savollar berildi (Kim bu? Bu nima? Nima qilyapti? Qanday?). Zaif eshituvchi bolalarga stol, sher, g'oz , konfet, qo'g'irchoq, bayroq, jo'ja, shar, karam, qor, choy ,soat rasmlari taklif etildi hamda ularning mazmuniga ko'ra saollar berildi.Rasm mazmuniga oid berilgan savollarga bolalar tomonidan qanday javob berilgan bo'lsa, qaror-qaydnomalarda shundayligicha hech bir o'zgarishsiz aks ettirildi. Zaif eshituvchi bolalar talaffuzidagi me'yordan chetga chiqishlar, eshitishning pasayishi bilan bog'liq holda, ushbu tovushlar idrokining chegaralanishi oqibatida yuzaga keladi. Shu sababli tarbiyalanuvchilarning talaffuz malakalari haqidagi dalillarni ularning faol lug'atini o'rganish jarayonida olingan ma'lumotlarga tayangan holda keltirdik

Tadqiqotimizda zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarning mazkur so'zlarning talaffuz qilinishida uchraydigan quyidagi me'yordan chetga chiqishlar aniqlandi:

Co'zdagi ma'lum bir tovushlar talaffuzining buzilishi.

Aytib o'tish joizki, bunday me'yordan chetga chiqish turli ko'rinishlarga ega bo'lsa-da, ularning barchasida so'zning umumiy ko'rinishining saqlanib qolingani kuzatildi.

Kuzatishlarimiz zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan buzib talaffuz qilingan tovushlarni quyidagicha guruhlashtirish imkonini berdi:

1. Undosh tovushlarning unli tovushlar bilan almashtirib talaffuz qilinishini anglatuvchi sonantlik. Masalan, jarangsiz *s*, **sh**, *z* tovushlarining lablashmagan til oldi *i* unlisi bilan almashtirilishi.
2. Jarangsiz undosh o'rniga jarangli undoshning talaffuz qilinishi. Masalan, yaqin til orqa jarangsiz *k* o'rniga yaqin til orqa jarangli **g** ning talaffuz qilinishi, lab-tish jarangsiz *f* tovushining lab-lab jarangli *v* tovushi bilan almashtirilishi, til oldi jarangsiz *t* tovushining til oldi jarangli **d** ko'rinishida talaffuz qilinishi.
3. Jarangli undosh o'rniga jarangsiz undoshning talaffuz qilinishi. Masalan, *q* tovushining **k**, **d** ning *t*, *b* ning **p**, *j* ning **ch**, *j* ning *t* holida deb talaffuz qilinishi kuzatildi.
4. *r* jarangli undoshining boshqa jarangli undoshlar *y* yoki *l* bilan, *g*' ning **g** bilan bilan almashtirilishi holati.
5. Jarangsiz undoshlarning boshqa jarangsiz undoshlar bilan almashtirilishi. Masalan, **ch** ning *t* bilan, *s* ning *t* bilan almashtirilishi holati.
6. Tishlararo va yon sigmatizmi holati. Bu holat artikulyastiya apparatida biroz me'yordan chetga chiqishlari bo'lgan tarbiyalanuvchilarda kuzatildi. Jag', prikus rivojlanishi (yuqori va pastki jag'larning jipslashuvida tishlarning holati)dagi me'yordan chetga chiqishlar sababli *s*, *z*, **sh**, *j* tovushlarining **st**, **zd**, *t*, **d** kabi talaffuz etilishini ham kuzatdik.

Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari talaffuz malakalarini tadqiq qilish natijalari

Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari talaffuz malakalarini o'rganish uchun taklif etilgan rasmlar	Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan talaffuz qilinishi
stol	«itol»
sher	«ier»
g'oz	«oi»
karam	«gayam»
konfet	«onvet»
stol	«dol»
qo'g'irchoq	«kugilcho»
daraxt	«dayax»
qor	«kol»
choy	«toy»
soat	«toat»
bayroq	«payyo»
jo'ja	«to'ta»
shar	«tar»

Co'zdagi tovushlarning tushirib qoldirilishi. Ma'lumki, u yoki bu tovushning talaffuz etilishi bevosita uning og'zaki nutqni eshitgan hamda ko'rish analizatoriga tayangan holda idrok etilishi bilan bog'liq. Kuzatishimiz tahlili maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar tomonidan idrok etilishi ular uchun qiyin sanalgan undosh tovushlarning tushirib talaffuz qilishlarini ko'rsatdi. Masalan, bir guruh tarbiyalanuvchilarning faqat til orqa va bo'g'iz tovushlarini tushirib talaffuz

qilganligi kuzatilsa, boshqa bir guruh bolalarining lab va til undoshlarini tushirib qoldirishlari aniqlandi. Biz ushbu holatlarning yuzaga kelishini asosan eshitishning pasayish darajasi bilan bog'ladik. Bolalar tomonidan tovushlarning tushirib talaffuz etilishiga oid quyidagi holatlar kuzatildi:

Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari talaffuz malakalarini o'rganish uchun taklif etilgan rasmlar	Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan talaffuz qilinishi
bola	«ola»
daftar	«datal»
gul	«ul»
piyoz	«piyo»
olma	«ola»
shar	«al»
parta	«ata»

Co'zlarni talaffuz qilishda ba'zi bo'g'inlarning tushirib qoldirilishi. So'zlarning talaffuzi uning qanday idrok etilishiga bog'liq bo'lganligi sababli nisbatan kam akustik jihatga ega bo'g'inli so'zlar tarbiyala0nuvchilar nutqida quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ldi:

Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari talaffuz malakalarini o'rganish uchun taklif etilgan rasmlar	Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan talaffuz qilinishi
soat	«at»
qovun	«un»

buvi	«vi»
palto	«ato»
velosiped	«sapet»

Co'z tarkibining saqlanmaganligi bilan ajralib turuvchi talaffuzning me'yordan chetga chiqishi. Eshitish darajasi chuqur pasaygan bolalarning, so'zlashuv nutqini idrok etishlaridagi qiyinchiliklar tufayli, so'zlarni nomlashlarida yaxlit bo'g'inlarni tushirib talaffuz qilishlari kuzatildi:

Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari talaffuz malakalarini o'rganish uchun taklif etilgan rasmlar	Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan talaffuz qilinishi
qo'g'irchoq	«aayo»
gul	«ut»
olma	«oa»
qozon	«ojo»
tarvuz	«at»
samolyot	«at»

Co'zlarni talaffuz qilishda ba'zi bo'g'in yoki tovushlarning qo'shib aytilishi Talaffuz me'yorlari bolalarning atrofdagilar bilan bo'lgan jonli muloqoti asosida o'zlashtiriladi. Tilning grammatik tizimini egallashdagi qiyinchiliklar so'zlarning talaffuz tomoniga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli zaif eshituvchi bolalar grammatik jihatdan bog'langan gap ichidan so'zlarni grammatik ko'rsatkichlarsiz ajratib olishda o'ta qiyinchiliklarga uchrashlari kuzatildi:

Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari talaffuz malakalarini o'rganish uchun taklif etilgan rasmlar	Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan talaffuz qilinishi
choy	«toyi»
bola	«boyasi»
uy	«uyi»
qiz bola	«tizi»
gul	«uli»

Co'zlarni talaffuz qilishda ba'zi bo'g'in yoki tovushlar o'rnining almashtirilish holatlari Co'zlarni talaffuz qilishda ba'zi bo'g'in yoki tovushlar o'rnining almashtirilish holatlari uchradi:

Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari talaffuz malakalarini o'rganish uchun taklif etilgan rasmlar	Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan talaffuz qilinishi
qozon	«konoz»
lola	«lalo»
daraxt	«adlax»

Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilar talaffuzidagi me'yordan chetga chiqishlar ushbu tovushlar idrokining chegaralanishi oqibatida yuzaga keladi. Tovushlar idrokidagi chegaralanish sababli bolalar bir tovushni boshqa bir tovushdan farqlay olmaydilar. Faqatgina so'zning tovush-harf tahlili ustida ish olib borilgandagina zaif eshituvchi bolalar to'g'ri talaffuz malakalariga ega bo'ladilar. Ko'rib o'tilgan zaif eshituvchi bolalar nutqlarining talaffuzidagi kamchiliklar surdopedagogik adabiyotlarda ko'rsatilgan eshitish muammosining nafaqat lug'at

va grammatik tizim darajasiga, balki talaffuz malakalarining shakllanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi haqidagi fikrlarni yana bir bor tasdiqladi.

Zaif eshituvchi bolalar talaffuz malakalarining rivojlanish darajasining har bir ko'rsatkichini o'rganish natijasida talaffuz malakalarining rivojlanishiga ko'ra o'zaro farqlanuvchi to'rt guruhga mansub bolalar ajratildi.

Olingan natijalarni ko'rib chiqishda bolalarning anamnestik va audiologik ma'lumotlari, oilada ular nutqining rivojlanishiga qaratilgan sharoitlar hisobga olindi.

Birinchi guruhga nutqiy rivojlanishiga ko'ra engil darajada orqada bo'lgan 20 % (2 nafar) bolalar kiritildi. Bu guruh bolalari, tibbiy tasnifga ko'ra, 1- va 2-darajaga mansub bo'lib, oilada ularning nutqiy rivojlanishidagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ba'zi choralarni qo'llanishi aniqlandi. Bu bolalar nutqida bir guruhga oid tovushlar talaffuzining buzilishi, faol lug'at boyligi me'yordan 30 % kamligi, nafaol lug'ati me'yorga yaqinligi, muloqotda ba'zan to'liq yoki to'liqsiz gaplardan foydalana olishlari, so'z birikmalarini to'g'ri tuza olsalar-da, agrammatizm mavjudligi, mustaqil nutqiy malakalarida qator muammolari borligi aniqlandi. Ushbu guruh bolalarini o'rganish jarayonida ularning so'zlashuv nutqiga e'tiborining nisbatan kuchliligi, bajara olmagan vazifalarni bajarish uchun tez-tez murojaat etishlari kuzatildi. Bu holat bunday bolalarning yuqori darajada o'qitilish imkoniyati mavjudligidan dalolat beradi.

Ikkinchi guruhga, nutqiy rivojlanishiga ko'ra, o'rta darajada orqada qolgan bolalar kiritildi (30 % (3 nafar)). Bu guruh bolalari, tibbiy tasnifga ko'ra, 2- va 3-darajaga mansub ekanligi aniqlandi. Bu toifa bolalar talaffuzida sonor, sirg'aluvchi tovushlarning buzilgani, faol lug'at boyligi me'yordan 60 % kamligi, nafaol lug'ati faol lug'atidan yuqoriroq, sodda gaplarni tuza olsalarda, agrammatizm mavjudligi, o'z fikrlarini bayon etishda qisman yordamga muhtoj ekanliklari, ba'zan imo-ishorali nutqqa murojaat qilishlari kuzatildi. Oilada ularning nutqiy rivojlanishiga e'tiborning biroz sustligi, ota-onalarning vaqtlarini ko'proq tibbiy muolajalarga sarflaganliklari aniqlandi.

Tadqiqotda ishtirok etgan 30 % (3 nafar) bolalarning uchinchi - past darajaga mansubligi aniqlandi. O'rganishlarimiz tarbiyalanuvchilar talaffuzining polimorf, ya'ni 2-5 tovush guruhiga oid tovushlarning buzilgani, faol lug'atining deyarli mavjud emasligini, nafaol lug'ati esa 30 % gacha ekanligini, ona tilining grammatik tizimi shakllanmaganligini, murojaat etilgan nutqni deyarli tushunmasliklarini, so'zlashuv nutqlari esa uzuq-yuluq tovushlardan iborat ekanligini ko'rsatdi. Bolalarning fikr va topshiriqlarni imo-ishora orqali bajarishga intilishlari ular bilan nutq o'stirish borasida muayyan ishlarni olib borish zarurligini taqozo etadi.

To'rtinchi guruhga nutqiy rivojlanishi o'ta past darajadagi, so'zlashuv nutqiga deyarli murojaat etmaydigan, yaqinlari, bolalar va pedagoglar bilan muloqotga o'ta qiyinchilik bilan kirishadigan, ular bilan nutqiy munosabatga kirishishida oddiy imo-ishoralardan foydalanadigan, boshqa guruh bolalaridan nutqiy va umumiy rivojlanishiga ko'ra keskin farq qiladigan, aqliy jihatdan ham ba'zi muammolari bo'lgan bolalarni kiritdik. Bunday bolalar tadqiqotda ishtirok etuvchilarning 20% (2nafar)ini tashkil etdi. Ushbu bolalar anamnezini o'rganish ular markaziy asab tizimining prenatal yoki natal davrda jarohatlanganini, bolalarning 10% (1 nafari) da ko'rish o'tkirligining pasayganini ko'rsatdi. Bunday bolalarda barcha tovushlar talaffuzining me'yordan chetga chiqqanligi, faol lug'atining mavjud emasligi, nafaol lug'ati 10 % gacha, ona tilining grammatik tizimi shakllanmaganligi, mustaqil nutqi mavjud bo'lmay, o'z fikrini sodda ko'rinishdagi imo-ishora orqali bildirishi aniqlandi. To'rtinchi guruh bolalarini o'rganish ular bilan ta'lim-tarbiya ishlarini majburiy tibbiy muolajalar bilan birga olib borishni taqozo etishini ko'rsatdi. Ya'ni bunday murakkab muammoli bolalar alohida tadqiqot ob'ekti hisoblanadi.

Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz malakalarini
rivojlanganlik darajalarini aniqlash mezonlari

Til vositalari	Mezonlar			
	yuqori daraja	o'rta daraja	past daraja	o'ta daraja past
tovushlar talaf-fuzi	sonor (r, l) tovushlari talaffuzi-ning buzilishi	sonor, sirg'aluvchi tovushlarining buzilishi	polimorf, 2-5 tovush guruhiga oid tovushlar-ning buzilishi	barcha tovushlar-ning talaffuzi me'yordan chetga chiqqan

Shunday qilib, o'rganuvchi tadqiqot natijalari zaif eshituvchi bolalarning nutqiy rivojlanish darajalari ularning eshitish holatiga bog'liqligi, o'z navbatida, eshitishdan o'rinli foydalanish nutqiy rivojlanish darajasiga bog'liqligini yana bir bor isbotladi.

O'quvchilar nutqiy rivojlanish ko'rsatkichlarining qoniqarsiz darajada ekanligi pedagoglarning kasbiy salohiyati darajasini aniqlash hamda ota-onalarning farzandlaridagi mavjud muammolarga munosabatlarining qay darajada ekanligini oydinlashtirishga undadi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Insonning u yoki bu analizatori faoliyatidagi qisman me'yordan chetga chiqish total darajada me'yordan chetga chiqish (analizator faoliyatining to'liq ravishda buzilishi)ga nisbatan o'zgacha rivojlanishni keltirib chiqaradi. Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqining umumiy holati sog'lom tengqurlarining nutqiy holatiga nisbatan ham miqdoriy, ham sifat jihatidan keskin farq qiladi. O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, bunday bolalarning nutqiy rivojlanishlari nuqsonli rivojlanish sifatida emas, balki o'ziga xos qonuniyatlarga ega bo'lgan asta-sekin rivojlanish jarayoni sifatida qaralishi lozim.


Maxsus ta'lim muassasasida nutqni rivojlantirishga qaratilgan shart-sharoitlarning etarli darajada yaratilmaganligi, ushbu toifa bolalar bilan oilada maxsus ravishda shug'ullanishga e'tibor berilmaganligi bois, hattoki, eshitishning pasayishi engilroq darajada bo'lgan bolalar ham qo'llanish doirasi yuqori bo'lgan maishiy lug'atning uncha katta bo'lmagan qismini o'zlashtirishga qodir bo'lishlariga qaramay, odatda, bu so'zlardan kundalik muloqotda kam foydalanmoqdalar. Tarbiyalanuvchilarning bilimlari faqat mashg'ulot jarayonida namoyon bo'lib, pedagog ortidan aynan takrorlash darajasida ekanligini ko'rsatadi. So'zlarning tovush tizimi va bo'g'in tuzilishini eslab qolishdagi qiyinchiliklar tufayli, hatto, mashg'ulot paytida va kundalik turmushda ko'p martalab takrorlanadigan nutqiy material ham bolalarning faol nutqiga kirmagan. Zaif eshituvchi bolalarning me'yordan o'zgacha rivojlanishini bartaraf etishga qaratilgan maxsus ta'lim-tarbiyani tashkil etishda nafaqat eshitish nuqsoni, balki ushbu muammo oqibatida yuzaga kelgan nutqning o'ziga xos rivojlanishi omili asosiy sanaladi. Bu, o'z navbatida, nutqiy malakalarni amaliy o'zlashtirish vazifasini hal qilishga qaratilgan til o'rgatish tizimini ishlab chiqishni taqazo etadi. Bunday ta'lim jarayonining samaradorligi deganda, har bir tarbiyalanuvchining nutqni muloqot vositasi sifatida faol egallashining ta'minlanganligini nazarda tutamiz.

Zamonaviy surdopedagogikaga oid adabiyotlar tahlili hamda o'rganuvchi tadqiqotimiz zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim-tarbiyasini amalga oshirishda, uni takomillashtirish masalasini hal qilishda nutqni reja asosida shakllantirish jarayoni markaziy o'rinni egallashi lozimligini yana bir bor isbotladi. Bunday bolalar ta'lim-tarbiya jarayoni yaxlit nutqiy muhit – so'zlashuv nutqi o'rnatilgan tartibda tashkil etilishi zarur. Maxsus tashkil etiluvchi ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyati surdopedagoglar hamda ota-onalarning bu jarayonda qay darajada ishtirok etishlari, hamkorlik ishlarini qay darajada tushunishlari bilan uzviy bog'liq.

3-bob.Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini talaffuz malakalarini shakllantirish shart-sharoitlari

3.1. Tajriba-sinov o'tkazish metodikasi, maqsad va vazifalari, bosqichlari va tamoyillari

Tadqiqotning ushbu bobida ta'limiy tajriba-sinov o'tkazish metodikasi, maqsad va vazifalari, bosqichlari va tamoyillari, maxsus maktab-internatlardagi zaif eshituvchi bolalar talaffuz malakalarini shakllantirishning mazmuni, usullari va shart-sharoitlari, ushbu bolalar talaffuz malakalarini rivojlantirishda ota-onalar bilan hamkorlikda olib boriluvchi ishlarning tashkil etilishi, ta'limiy tajriba-sinov natijalari haqida fikr yuritiladi.



Tajriba-sinov Olmazor tumanidagi 106-zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab internatda olib borildi. Tadqiqot guruhida 2012-2013 o'quv yilida eshitish qobiliyatining pasayishiga qarab 3 ta darajaga mansub 10 nafar 8 yoshli 2"b"sinf o'quvchilari ishtirok etdi. Sinf o'qituvchisi Akramova Yu, surdopedagog Yuldasheva S. Nazorat guruhida 2012-2013 o'quv yilida eshitish qobiliyatining pasayishiga qarab 3 ta darajaga mansub 10 nafar 7-8 yoshli 2"a"sinf

o'quvchilari ishtirok etdi. Sinf o'qituvchisi Rustamova R., surdopedagog Niyozoxunova N.

Zamonaviy maxsus ta'limning nazariy va metodik asoslaridan kelib chiqib, ta'limiy tajribamizning maqsadi va vazifalari aniqlandi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga pedagogik ta'sir etish metodlari belgilandi. Korrekstion-rivojlantiruvchi ishlarning maqsadi o'quvchilarning eshitish qobiliyati rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish, muloqotga kirishishini nazarda tutdi. Mazmuni esa jarayonning keng qamrovligini e'tiborga olgan holda belgilandi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini talaffuz malakalarini shakllantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida og'zaki nutqni rivojlantirish maqsad qilib olindi. Nutqni keng qamrovli shakllantirishning korrekstion-rivojlantiruvchi ish tizimini ishlab chiqishda pedagogik jarayonning barcha tarkibiy qismlari: vazifa va mazmuni, didaktik sharoit va vositalari, bolalarning ruhiy va o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari nazarda tutildi.

Tajriba-sinov jarayonida quyidagi vazifalar hal qilindi:

- yakka mashg'ulotlarda maxsus korrekstion ta'sir choralarining mazmuni va metodlari aniqlandi;
- yakka mashg'ulotlar jarayonida talaffuz malakalarini shakllantirishda predmetli-rivojlantiruvchi sharoitlar tashkil etildi;
- yakka mashg'ulotlarni olib boruvchi surdopedagoglar uchun zamonaviy usullardan foydalangan holda olib boriluvchi ish shakllarining mazmuni, ulardan foydalanish uchun tavsiyalar ishlab chiqildi;
- yakka mashg'ulotlarda ota-onalarga farzandlari bilan olib boradigan nutqni rivojlantiruvchi yo'nalishlar ishlab chiqildi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida umumpedagogik va xususiy tamoyillar e'tiborga olindi, nutqni keng qamrovli rivojlantirish bo'yicha olib boriluvchi ishlarda quyidagi tamoyillarga rioya qilindi:

1. Har bir bolalarni talaffuz malakalarini shakllantirishda, dastlabki darajasini hisobga olgan holda, tabaqalangan ravishda va individual yondashish tamoyili.
2. Har bir bola rivojlanishiga mos ravishdagi ishning tashkiliy shakllaridan foydalanish tamoyili.
3. Bolalarni talaffuz malakalarini shakllantirishda tilni muloqot (kommunikatsiya) quroli sifatida shakllantirish tamoyili.
4. Kommunikativ tizimni amalga oshirishda asosiy: genetik, faoliyat hamda struktur-semantik tamoyillarga tayanish.
5. Talaffuz malakalarini shakllantirish bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilishning mavzuiy tamoyili.
6. Talaffuz malakalarini shakllantirish yaxlit jarayon sifatida shakllantirishda nutqiy faoliyatning turli ko'rinishlari (atrofni eshitish-ko'rish va eshitish, so'zlash, o'qish, yozish vositasida idrok etish) ni o'zlashtirishni ko'zda tutish.
7. Talaffuz malakalarini shakllantirishning amaliy faoliyat bilan bog'liqligi tamoyili.
8. So'zlashuv muloqotiga ehtiyojni yuzaga keltirish tamoyili.

Tajriba-sinov quyidagi yo'nalishlarda olib borildi:

1-yo'nalish. Yakka mashg'ulotlarda talaffuz malakalarini shakllantirish bo'yicha olib boriluvchi korrektsion-rivojlantiruvchi ishlar mazmunini takomillashtirish. Bu jarayonda har bir guruh bolalariga tabaqalangan ravishda yondashish masalasiga alohida ahamiyat berildi.


2-yo'nalish. Yakka mashg'ulot olib boruvchi surdopedagoglarning kasbiy salohiyatlarini oshirishga qaratilgan ish shakllari.

3-yo'nalish. Ota-onalarga farzandlari bilan shug'ullanishlarida tavsiya, yordam, yo'l-yo'riqlar ko'rsatish, maslahatlar berish, seminar-treninglar o'tkazish.

Boshlang'ich sinf zaif eshituvchi o'quvchilar talaffuz malakalarini shakllantirish keng qamrovli rivojlantirishga oid maxsus tashkil etilgan, maqsadga

yo'naltirilgan ish bunday bolalarning nutqiy imkoniyatlari darajasining ortishiga, bolalarning maktabda o'qishga tayyorgarligining yaxshilanishiga yordam beradi. Aniqrog'i, surdopedagoglar tomonidan puxta ishlab chiqilgan (loyihalashtirilgan), maqsadi hamda ishtirokchilarga ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari aniq belgilab olingan yaxlit korrekstion-rivojlantiruvchi jarayon uning samaradorligini belgilaydi.

Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari talaffuz malakalarini korrekstion- shakllantiruvchi jarayon



Rasmdan ko'rinib turibdiki, maxsus ta'lim muassasasi surdopedagoglari bilim, ko'nikma va malakalarga, shuningdek, maxsus metodikalarga tayangan holda o'z oldilariga zaif eshituvchi bolalar talaffuz malakalarini korrekstion- shakllantiruvchi jarayonni nazarda tutuvchi maqsadni qo'yadilar hamda uni amalga oshirish uchun zaif eshituvchi bolaga maxsus tashkil etilgan serqirra jarayon hamda ota-onalar bilan o'tkaziluvchi turli-tuman tadbirlar orqali ta'sir choralarini qo'llaydilar. Ular asosida natijaga—o'quvchining nutqiy jihatdan rivojlanishiga erishiladi. Zaif

eshituvchi o'quvchilar talaffuz malakalarini korrekstion-shakllantirishga qaratilgan ish yalpi (frontal) va yakka (individual) mashg'ulotlardan tashqari kun tartibining barcha tarkibiy qismlari davomida olib borildi.

Surdopedagoglar faoliyatlarini o'rganishda ularning zaif eshituvchi o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish, bu ishlarni tashkil etishda o'ta qiyinchiliklarga duch kelishlari ma'lum bo'lgan edi. Kasbiy salohiyat darajasi e'tiborga loyiq omil ekanligi sababli surdopedagoglar uchun yo'nalishlar bo'yicha yillik, kalendar-mavzuli va kundalik rejalashtirish namunalari ishlab chiqildi. Ushbu rejalashtirishlarni ishlab chiqishda o'quvchilarning nafaqat nutqiy jihatdan rivojlanishlari, balki ularning ijtimoiy hayotga uyg'unlashib ketish omillari ham nazarda tutildi. Shuningdek, pedagog xodimlar uchun seminar-treninglar, ochiq mashg'ulotlar, maslahatlar uyushtirildi.

Tadqiqot davomida ota-onalarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ishtirokiga ham alohida ahamiyat berilib, ularning uy sharoitida farzandlarining nutqini rivojlantirishni nazarda tutuvchi ish tizimi ishlab chiqildi va sinovdan o'tkazildi. Ota-onalar bilan ishlashning turlicha shakllaridan: maslahat-konsultastiyalar (pedagoglarning guruh va yakka tartibdagi maslahatlari), anonim muloqot, ma'rifiy (trening, ma'ruza, davra suhbatlari, mavzuga oid muhokamalar) va amaliy tadbirlardan (ochiq mashg'ulotlar, bayram tadbirlari, bolalar bilan hamkorlikdagi faoliyat) foydalangan holda ish olib borildi. Ularda asosiy e'tibor uy sharoitida bolalar bilan olib borilishi lozim bo'lgan korrekstion-rivojlantiruvchi ish tizimining yoritib berilishiga qaratildi. Xuddi shu maqsadda ota-onalar uchun metodik qo'llanma yaratildi.

Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari talaffuz malakalarini korrekstion-shakllantiruvchi jarayon eng sodda og'zaki nutq asosida amalga oshirildi:

- a) so'zlovchilar o'rtasida taqsimlangan savol-javob orqali;
- b) vaziyatning mavjudligi;

v) me'yorida eshituvchi shaxslar nutqining ohangdorligini ta'minlovchi ovoz toni va imo-ishoralar orqali;

g) bayon etishni engillashtiruvchi – to'liqsiz gap shaklining mavjudligi.

Sanab o'tilgan sharoitlarning mavjudligi o'quvchi nutqining takomillashishiga imkon yaratdi. Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari bunday sharoitda ishtirok etishi, bir tomondan, ehtiyojlarini qondirishi uchun imkon bersa, ikkinchi tomondan, keyinchalik yuzaga keluvchi nisbatan kuchliroq talablarini qondirish uchun zarur bo'lgan nutqning rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatdi.


Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari talaffuz malakalarini tadqiq qilish jarayonida tadqiqot guruhidagi o'quvchilar faol lug'atni o'rganishda rasmlar taklif etildi hamda ularning mazmuniga ko'ra savollar berildi (Kim bu? Bu nima? Nima qilyapti? Qanday?). Zaif eshituvchi bolalarga stol, sher, g'oz , konfet, qo'g'irchoq, bayroq, jo'ja, shar, karam, qor, choy ,soat rasmlari taklif etildi hamda ularning mazmuniga ko'ra saollar berildi. Rasm mazmuniga oid berilgan savollarga bolalar tomonidan qanday javob berilgan bo'lsa, qaror-qaydnomalarda shundayligicha hech bir o'zgarishsiz aks ettirildi. Zaif eshituvchi bolalar talaffuzidagi me'yordan chetga chiqishlar, eshitishning pasayishi bilan bog'liq holda, ushbu tovushlar idrokining chegaralanishi oqibatida yuzaga keladi. Shu sababli o'quvchilarning talaffuz malakalari haqidagi dalillarni ularning faol lug'atini o'rganish jarayonida olingan ma'lumotlarga tayangan holda keltirdik. Zaif eshituvchi bolalar talaffuz malakalarini tadqiq qilish jarayonida nazorat guruhidagi bolalarga faol lug'atni o'rganishda rasmlar taklif etildi hamda ularning mazmuniga ko'ra savollar berildi (Kim bu? Bu nima? Nima qilyapti? Qanday?). Zaif eshituvchi o'quvchiga stol, sher, g'oz , konfet, qo'g'irchoq, bayroq, jo'ja, shar, karam, qor, choy ,soat rasmlari taklif etildi hamda ularning mazmuniga ko'ra saollar berildi. Tajriba-sinov jarayonida, tadqiqot guruhiga nazorat guruhida o'quvchilar talaffuz malakalarining shakllanish darajasi yaxshi natijani ko'rsatdi.

**Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari talaffuz malakalarining
rivojlanish darajalarining ko'rsatkichi**

eksperiment	O'quv yili	Tallafuz malakalari rivojlanish darajasi	Nazorat guruhi		Tajriba-sinov guruhi	
			tadqiqot boshida	tadqiqot yakunida	tadqiqot boshida	tadqiqot yakunida
ta'kidlovchi	2012-2013	yuqori	10% (1nafar)	1% (1nafar)	20% (2 nafar)	30% (3 nafar)
		o'rta	40% (4nafar)	40% (4nafar)	30% (3nafar)	40% (4nafar)
		past	50% (5nafar)	50% (5nafar)	50% (5nafar)	30% (3nafar)
	jami		100%(10nafar)	100%(10 nafar)	100%(10nafar)	100%(10nafar)
tajriba	2013-2014	yuqori	10%(1nafar)	10%1nafar)	20%(2 nafar)	60% (6 nafar)
		o'rta	40%(4nafar)	40%(4nafar)	30% (3nafar)	40% (4 nafar)
		past	50%(5nafar)	50%(5nafar)	50%(5nafar)	
	jami		100%(10nafar)	100%(10nafar)	100%(10nafar)	100%(10nafar)

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, dastlabki 2012-2013 o'quv yilida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining yakunida nazorat va tajriba-sinov guruhlarida o'quvchilar talaffuz malakalarini rivojlanganlik darajasi tajriba-sinov avvaliga qaraganda o'zgargan. Jumladan, tajriba-sinov guruhida tadqiqot boshida yuqori ko'rsatkich darajasi 20% edi, tadqiqot yakunida 30 %ga, o'rta darajadagi ko'rsatkich tadqiqot boshida 30%, yakunida 40% ko'rsatkichi, past darajadagi rivojlanish ko'rsatkichi yil boshida 50%ni, tadqiqot yakunida 30 %ga erishgan. Nazorat guruhida esa ko'rsatkichlar deyarli o'zgarmadi. 2013-2014 o'quv yilida nazorat guruhidagi o'quvchilarning talaffuz malakalarining rivojlanganlik darajasi nisbatan o'zgarmadi. Tajriba-sinov guruhida yil boshida yuqori darajadagi ko'rsatkich 20 % edi, yil yakunida 60% erishildi, talaffuzning rivojlanishining o'rta darajasi yil boshida 30 %, yil oxirida bu ko'rsatkich 40% etdi. Talaffuz

malakalarning rivojlanishining past darajasi yil boshida 50%ni, yil oxirida esa talaffuzning past darajadagi rivojlanish bartaraf etildi.



O'quvchilarni yakka tartibdagi ovozni kuchaytirib beruvchi apparatlar bilan ta'minlansa ,ya'ni har kuni uylariga olib ketilib, alohida e'tibor bilan kamol topsalar, nutqiy va umumiy rivojlanishida sog'lom tengqurlari bilan uyg'unlashib keta oladilar. Shuningdek, ushbu guruh o'quvchilari ta'lim-tarbiyasining muvaffaqiyati quyidagilarga ham bog'liq:

- yakka tartibdagi korrekstion-rivojlantiruvchi dasturlarning ishlab chiqilishi;
- dasturning barcha yo'nalishlari bo'yicha yakka tartibda o'tkaziluvchi mashg'ulotlarning ko'paytirilishi;
- korrekstion-rivojlantiruvchi ta'lim-tarbiya jarayonida ota-onalarning faol ishtiroki.

Zaif eshituvchi o'quvchilar nutqiy muhitni ta'minlovchi sharoitlarda tarbiyalanishlari va har bir o'quvchining o'z va o'zaro faollashuvini nazarda tutuvchi ish shakllarining barchasida ishtirok etishlari lozim.

Olingan natijalarning tahlili tadqiqot ilmiy farazlarining isbotini topganligini, qo'yilgan vazifalar hal etilganligini, shuningdek, ishlab chiqilgan tizimning sermahsul ekanligini ko'rsatdi.

Maxsus maktab-internatlarda olib boriluvchi nutqni rivojlantirish jarayonida har bir bola eshitish muammosining mavjud holati va shaxsiy xususiyatlari hisobga olinib, yakka-yo'naltirilganlik tamoyiliga rioya qilinishi, bu toifa bolalar ta'lim-tarbiyasini amalga oshirish, takomillashtirish muammolarini hal qilishda nutqni reja asosida shakllantirish jarayoni markaziy o'rinni egallashi lozim. Nutqning yaxlit jarayon sifatida shakllanishi uchun bolalar tomonidan nutqiy faoliyatning turli ko'rinishlari: atrofni eshitish-ko'rish va eshitish, gapirish, o'qish, yozish vositasida idrok etishning o'zlashtirilishini nazarda tutgan holda ish ko'rish lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'zlashuv nutqini jonli muloqot vositasi sifatida o'zlashtirishida so'zlashuv muloqotiga ehtiyojni yuzaga keltiruvchi ish shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi. Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishida hal qiluvchi omillardan biri eshitish qoldig'idan maksimal darajada foydalanish muhim ahamiyat kasb etishi sababli bolalarning ovoz kuchaytirgich asboblari bilan erta ta'minlanishiga erishish shart. Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy va ruhiy rivojlanish xususiyatlariga tayangan holda korrekstion-rivojlantiruvchi tizimni takomillashtirishda asos bo'luvchi muqobil dastur va texnologiyalar ishlab chiqishni yo'lga qo'yish lozim. Maxsus ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglarning kasbiy malakalarini o'z muddatida muayyan yo'nalish bo'yicha amalga oshirib borilishini yo'lga qo'yish zarur.

Maxsus maktab-internatlar pedagoglarining ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini takomillashtirishga erishish lozim. Eshitishida muammosi bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilari ota-onalari uchun farzandlarining ijtimoiy hayotga moslashuvi, sog'lig'i va rivojlanishiga oid mavzulardagi metodik tavsiyalarni ishlab chiqish, ular o'rtasida bolalarning ijtimoiy moslashuvi, nutqiy rivojlanishi haqida targ'ibot ishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

3.2. Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz malakalarini shakllantirish va ularning natijalari

Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarni talaffuz malakalarini shakllantirish jarayoni o'z ichiga korrekstion ta'lim vazifalarini oluvchi pedagogik jarayondan iborat. Korrekstion ta'lim jarayonida ko'yidagi umumdidaktik tamoyillarga katta ahamiyat beriladi: talimning tarbiyalovchi xususiyati, ilmiylik, sistemalilik, ketma-ketlilik, ko'rgazmalilik, tushunarlilik va faollik, mustaxkamlilik, yakka yondoshish. Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilari talaffuz malakalarini shakllantirishda maxsus tamoyillarga ham asoslanadi: etiopatogenetik (nutqiy nuqson etiologiyasi va mexanizmini hisobga olish), sistemalilik va nutqiy nuqson tuzilishini hisobga olish, komplekslilik, differentsial yondoshish, shaxs xususiyatlarini hisobga olish, faoliyatli yondoshish, ontogenetik tamoyil, tabiiy nutqiy muhit sharoitida nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish. Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini talaffuz malakalarini shakllantirish nutqiy nuqsonlarni bartaraf etishda etiologik omillarni hisobga olish etiologik omillarni hisobga olish juda muhim.

Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini talaffuz malakalarini shakllantirish-kompleks tibbiy-ruhiy-pedagogik ta'sir jarayonida nutqning rivojlanganlik darajasi, bilish faoliyati, bolaning sensor va motor xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini talaffuz malakalarini shakllantirish bir maqsadga yo'naltirilgan murakkab tashkil etiladigan jarayon bulib, bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi. Ularning har biri o'zining maqsadi, vazifasi, metod va usullari bilan belgilanadi. Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni talaffuz

malakalarini shakllantirish ontogenetik tamoyil, nutqning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olish asosida amalga oshiriladi.

Surdopedagogik ishlarni olib borishda asosiy o'rinni, shaxsni bir butunlikda korrekstiyalash va tarbiyalash egallaydi. Bunda shaxsning yoshi, nutqiy nuqson tuzilishlari hisobga olinadi. Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini talaffuz malakalarini shakllantirish etakchi faoliyatni hisobga olish bilan birgalikda olib boriladi. Maktab yoshdagi bolalarda o'yin faoliyati, motorika, sensor soha, lug'at boyligi, til qonuniyatlarini egallash bola shaxsini shakllantirish jarayonida olib boriladi. Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini talaffuz malakalarini shakllantirish jarayonida surdopedagogik ta'sirning asosiy shakllari bo'lib, ta'lim-tarbiya, korrekstiya, kompensastiya, adaptastiya, reabilitastiya hisoblanadi.

Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini talaffuz malakalarini shakllantirish surdopedagogik ta'sir turli xil metodlar yordamida amalga oshiriladi. Ta'lim metodlarining turli xil tasniflari mavjud. Surdopedagogik ishda: amaliy, ko'rgazmali va og'zaki metodlardan foydalaniladi, u yoki bu metodni qo'llash nutqiy nuqson xususiyati bilan belgilanadi. Amaliy metodlarga mashqlar, o'yin va modellashtirish kiritiladi. Mashqlar – bu berilgan amaliy va aqliy harakatlarning ma'lum ketma-ketlikda bola tomonidan takrorlanishidir. Artikulyastiya va ovoz kamchiliklarini bartaraf etishda bunday mashqlar ishning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Artikulyastion mashqlarni doimiy ravishda bajarib turish, tovushni nutqqa quyish va to'g'ri talaffuz etish uchun zamin tayyorlaydi. Mashqlar taqlidiy-bajariluvchi, konstruktiv va ijodiy turlarga bo'inadi.

Taqlidiy-bajariluvchi mashqlar bolalar tomonidan namuna asosida bajariladi. Surdopedagogik ishda asosiy o'rinni amaliy xarakterdagi mashqlar egallaydi (ovoz, nafas, artikulyastiya, umumiy va mayda kul motorikasini rivojlantiruvchi). Boshlang'ich bosqichlarda harakatlar ko'rgazmalilik asosida egallanadi. Harakat usullari egallangan sari ko'rgazmalilik «yo'qolib» boradi va og'zaki shaklda bayon

qilish bilan almashtiriladi. Shu tarika boshida artikulyastion mashqlar ko'rgazmalilik asosida kuruv idrokiga tayanib logoped bilan birgalikda amalga oshiriladi. Keyinchalik bu mashqlar mustahkamlangach, faqatgina surdopedagogning og'zaki buyruqlari asosida bajariladi. Curdopedagogik ish jarayonida turli xildagi konstruktorlash turlaridan ham foydalaniladi. Ijodiy harakatdagi mashqlarda ilgari egallangan usullarni yangi sharoit va yangi nutqiy materialda kullay bilish tushuniladi. Misol uchun, tovushlar tahlili, so'zdagi ketma-ketligini egallashda o'quvchilar turli xil yordamchi vositalardan foydalanadilar, keyinchalik bu mashqlar og'zaki shaklda bajariladi. Bola mustaqil ravishda malum tovush ishtirok etgan so'zlarni uylab topadi, rasm tanlaydi va h.k.

O'yinli mashqlar (masalan, harakatlarga taklid: utin yorish, daraxtlarning kimirlashi, ayikning yurishi va h.k.) foydalanish bolalarda yaxshi kayfiyatni uyg'otadi. Har qanday mashqlar quyidagi shartlarga amal qilgan holda olib borilganidagina bilim va kunikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi:

- bola tomonidan maqsadni tushunilishi. Bunda bolaning yosh va psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda, vazifalar aniq belgilanishi, bajarilish usullari aniq ko'rsatilishi bilan bog'liq;

- sistemalilik, ya'ni ko'p marotabadan taqrorlash (yakka mashg'ulotlarda, mashg'ulotlardan tashqari, darsda, turli xil muloqot shakllarida);

- bolaning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda korrekstiyalash ishlarini murakkablashtirib borish;

- amaliy va nutqiy harakatlarni tushunib bajarish;

- korrekstiyalash ishlarining oxirgi bosqichida mustaqil bajariladigan harakatlar (avval surdopedagog yordamida, mexanik vositalar yordamida va h.k.).

- bajarilgan topshiriqlarni differentsial tahlil qilish va baholash.

O'yin metodi - o'yin faoliyatini boshqa usullar namoyish qilish, tushuntirish, savollar bilan birgalikda olib borishni nazarda tutiladi.

O'yin metodida asosiy, etakchi rolni surdopedogog o'ynaydi. U korrekstion ishlarni vazifalari va bosqichlariga mos ravishda o'yin turini tanlaydi, rollarni bo'lib beradi va bolalarning faoliyatini faollashtiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan turli xil o'yinlar olib boriladi: ashulali, didaktik, harakatli, ijodiy, saxnalashtirilgan va h.k. Ularning qay tariqa qo'llanishi korrekstion ishning vazifalari va bosqichi, nutqiy nuqson tuzilishi, bolalarning yosh va individual-ruhiy xususiyatlari bilan belgilanadi.

Modellashtirish - bu modellarni yaratish, qo'llash va ob'ektlarining tuzilishi haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga mo'ljallangan jarayondir.

Ulardan samarali foydalanish ko'yidagi sharoitlarga bog'liq:

- model ob'ektning xususiyatlarini aks ettiruvchi bo'lishi kerak;
- ma'lum yoshdagi bolaning idrok qilishi uchun mos bo'lishi kerak;
- bilim, kunikma va malakalarni egallash jarayonini engillashtirishi zarur.

Modellardan foydalanish ma'lum darajada aqliy operastiyalarni ham shakllantirishga xizmat qiladi (analiz, sintez, mavxumlashtirish, umumlashtirish, taqqoslash).

Ko'rgazmali metodlar - bu bilim ko'nikma va malakalarni egallashda ko'rgazmali kurollar va texnik vositalar yordamida beriladigan ma'lumotlardir.

Ko'rgazmalardan foydalanish nutqiy materialni egallashni engil-lashtiradi, nutqiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Sezgi obrazlariga tayanish, nutqiy ko'nikma va malakalarni aniq, tushunarli qilib o'zlashtirishni ta'minlaydi, hamda surdopedogog ishning samaradorligini oshiradi.

Ko'rgazmali metodlarga kuzatish, rasmlarni ko'rish, maketlar, diafilm, kinofilmlarni ko'rish, magnitafonlarni eshitish, hamda topshirik namunasini, harakat usulini ko'rsatish kabilar qiradi.

Kuzatish - rasm, artikulyastiya profili, maket, tovushlar artikulyastiyasi mashqlarni qo'llash va ko'rsatish bilan bog'liq.

Aytib utilgan qo'llanmalardan foydalanish, bolalar tasavvurini kengaytirish, bilish faoliyatini rivojlantirish va surdopedagogik ishning samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Ko'rgazmali vositalar qo'yidagi talablarga javob berishi kerak:

- 1) hammaga yaxshi ko'rinishi;
- 2) bolaning individual-ruhiy va yosh xususiyatlarini hisobga olib tanlanishi;
- 3) korrekstiyalash davridagi malum bosqich vazifalariga mos surdopedagogik ishlarni tanlash;
- 4) aniq va tushunarli nutq bilan izohlanishi.

Ko'rgazmalardan foydalanish malum maqsadga qaratilgan bo'lishi mumkin: sensor sohadagi kamchiliklarni korrekstiyalash (rang, shakl, kattaliklar va h.k. haqidagi tasavvurlar), fonematik idroqni rivojlantirish (rasmlarda malum bir tovush ishtirok etgan so'zni topish), tovush analizi va sintezini rivojlantirish (syujetli ramslardan nomida 5 ta tovush ishtirok etgan rasmni topish), tovushning to'g'ri talaffuzini mustahkamlash, lug'at boyligi, nutqning grammatik tuzilishi, bog'langan nutq ustida ishlash (syujetli rasmlar asosida hikoya tuzish).

Surdopedagogik ishda og'zaki metodlardan bolaning yosh xususiyatlari, nutqiy nuqson tuzilishi, korreksion ta'sirning maqsadi, vazifasi, bosqichini hisobga olgan holda foydalaniladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan ishda og'zaki metodlar, amaliy va ko'rgazmali metodlar bilan birgalikda olib boriladi.

Og'zaki metodlarning asosiy shakllari bu – hikoya, suhbat va o'qish.

Hikoya – bu ta'limning shunday shakli, bunda har qanday bayon ta'riflovchi harakterga ega bo'ladi. Undan bolalarda biron voqea, xodisa haqida tasavvurlarni hosil qilish, namunali nutqni eshittirish, bolalarni keyingi mustaqil ishlarga tayyorlash, lug'atni boyitish, nutqning grammatik shakllarini mustahkamlash maqsadida foydalaniladi.

Hikoya bolaning tafakkuri, tasavvurlari, sezgilarga ta'sir qiladi, nutqiy muloqotga kirishish, fikr almashishga undaydi.

Didaktik vazifalarning xususiyatlariga qarab tayyorlov, xulosalovchi, umumlashtiruvchi suhbatlar qo'llaniladi. Tayyorgarlik suhbatlari jarayonida Surdopedagog o'quvchilarning bilimlarini aniqlaydi, yangi mavzuni o'zlashtirish uchun ko'rsatma beradi. Misol uchun, *sh-s* tovushlari differentsiastiyasida tayyorgarlik suhbatlari davrida *sh* hamda *s* tovushlari ajratiladi, ularning artikulyastiyasi aniqlashtiriladi. So'ngra tovushlar solishtiriladi, mavjud bilimlar umumlashtiriladi. Xulosalovchi suhbatda nutqiy ko'nikma va malakalar differentsiastiyalashtiriladi va mustahkamlanadi.

Analiz, sintez, solishtirish, umumlashtirish asosida nutq elementlari aniqlashtiriladi va mustahkamlanadi.

Surdopedagogik ish jarayonida suhbatlardan foydalanish quyidagi shart-sharoitlarga mos kelishi kerak:

- bolaning nutqiy ko'nikma va malakalarining darajasi, tasavvurlar hajmi, yosh xususiyatlariga tayanish;

- bolaning fikrlash faoliyatiga moslashish;

- savollar aniq, tushunarli, bolaning yoshiga mos bo'lishi;

- bolalarni fikrlash faoliyatini faollashtiruvchi usullardan foydalanish (qiziqarli savollar);

- suhbatning o'tkazilishi xususiyatlari korrekstion ishning maqsad va vazifalariga mos bo'lishi kerak.

Suhbatni o'tkazish jarayonida turli xil vazifalar ko'yiladi: bilish faoliyatini rivojlantirish, to'g'ri talaffuzni mustahkamlash, so'zlarning grammatik tuzilishini aniqlash, aniq bog'langan nutq ko'nikmalarini mustahkamlash va h.k.

Surdopedagogik ta'sir jarayonida turli xildagi og'zaki usullardan foydalaniladi: namuna ko'rsatish, tariflash, tushuntirish, pedagogik baho.

Tariflash va tushuntirish o'z ichiga ko'rgazmali va amaliy metodlarni oladi. Misol uchun, tovushni nutqqa qo'yishda surdopedagog namoyish qilish bilan birga, uning artikulyastiyasini tushuntiradi, til va lablar xolatini ko'rsatib beradi.

Surdopedagogik ishda topshirikning bajarilishida pedagogik baholash muhim ahamiyatga ega.

Bola faoliyatini baholashda uning yosh va individual-ruhiy xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Surdopedagogik ta'sir ko'yidagi shakllarda amalga oshiriladi: frontal, guruhli, individual mashg'ulotlar va dars.

Boshlang'ich sinf eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning nutq rejimi kattalarning keng ko'lamli yordami orqali amalga oshiriladi. Bunda ular eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning bir nutq bosqichidan boshqasiga o'tishini muntazam nazorat qiladilar. O'quvchilar, o'smirlar va kattalarning nutq rejimi ular tomonidan zarur nutq mashqlarini tanlab olishni, ular tomonidan to'g'ri nutq talablarini, turli sharoitlarda to'g'ri nutq ko'nikmalarini mashq qildirilishini nazarda tutadi. Surdopedagog umumnazariy va maxsus ixtisosli bilimlar tizimini egallagan bo'lishi kerak. Bu bilimlarning majmui va kengligi unda nuqsonli rivojlanishning tipologiya va tarkibi, nutqiy nomukammallikning oldini olish va uni bartaraf etish usullari haqidagi, ruhiy-pedagogik ta'sir etish metodlari to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantiradi.

Surdopedagog nutq buzilishlarini payqab olishi, ularni tuzatish va bartaraf etish usul hamda metodlarini egallagan bo'lishi, bunday nuqsonlarni oldini olishga doir profilaktik ishlarni yo'lga qo'yishi, nutqi zaiflashgan bolalarni maktabgacha tarbiya yoshida ham, maktab yoshida ham ona tili bo'yicha o'qitishning maxsus metodlaridan qo'llay olishi, g'ayritabiiy nutqli bolalarning muhim psixik xususiyatlarini bilishi, ularni tarbiyalash usul hamda metodlarini egallagan bo'lishi, ulardagi oliy miya qobig'i faoliyatini tuzatish va rivojlantirish uslublaridan qo'llana olishi kerak. Surdopedagogning ixtisosi bo'yicha chuqur bilimga egaligi dasturlarni, maktab darsliklarini, surdopedagogika bo'yicha qo'llanmalarni bilishni o'z ichiga oladi.

Bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ularning buzilgan nutqlari yuzasidan olib boriladigan ishlarning samaradorligiga erishish uchun logopedning shaxsi birinchi

darajali ahamiyat kasb etadi. U quyidagi asosiy sifatlarni o'zida namoyon etadi: kasbiga qiziqishlik; bolalarni sevish, o'ziga va atrofdagilarga talabchanlik; pedagogik ijodiy xayol va kuzatuvchanlik; samimiylik, kamtarlik, mas'uliyatlilik, so'zda va amalda qat'iylik va izchillik.

Surdopedagog ilg'or tajribalarni umumlashtirib bolalarning nutqini tuzatishning eng yaxshi vositalari bo'yicha izlanish olib borishi kerak.

U egallab olishi lozim bo'lgan malakalar keng va turlichadir: o'quv-bilish (adabiyotlar bilan ishlash, bolani kuzatish, pedagogik jarayonni modellashtirish, tuzatish-tarbiyalash orqali ta'sir etishning samarali yo'llarini tanlash va boshqalar): o'quv-tashkiliy (muqobil va kalendar rejalashtirish, yakka tartibda va guruhli mashg'ulotlar o'tish, jihozlarni yaratish, keng qamrovli ta'sir etishni ta'minlash hamda bu qamrovda ishtirok etish va boshqalar); o'quv-pedagogik (har bir voqeani tahlil qilish, tuzatishning aynan bir xil vositalarini tanlash va hakoza).

Bundan tashqari, surdopedagogning ishi deontologiya tamoyillariga qat'iy amal qilishga asoslanishi kerak (Surdopedagog kar va zaif eshituvchi shaxs, uning qarindoshlari, ish joyidagi hamkasblari bilan bo'ladigan o'z munosabatlarini qanday tashkil etishi lozim).

Pedagogik deontologiya pedagogik etika va estetika, pedagoglik burchi va pedagogik odobi haqidagi ta'limotlarni o'z ichiga oladi. unga amal qilishda logopeddan nutqida kamchiligi bor bolaning ota-onalari psixologiyasini tushunishi va ular bilan bir qatorda qayg'urishi talab qilinadi. Surdopedagog juda sabotli, tabdirkor va hayrihoh, nutqi buzilgan shaxsga va uning ota-onalariga vrachning bemorga va uning yaqin kishilariga muomalasi kabi munosabatda bo'lishi, nutq buzilishlarining og'ir jihatlari va muhimi, mexanizmlarini aniqlashda, ular haqida oldindan ma'lumot to'plashda ehtiyotkorlik qilishi, nutq buzilishlarining tashqi ko'rinishini, ularning mohiyatini hisobga olishi kerak.

Surdopedagogva bolalar muassasasi vrachi, Surdopedagog va tarbiyachi, Surdopedagog va pedagog o'rtasida o'rnatiladigan o'zaro to'g'ri munosabatlar pedagogik deontologiyaning muhim sharti hisoblanadi.

Surdopedagog nutqi atrofdagilarga-nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham namuna bo'lishi lozim. Surdopedagog yagona nutqiy tartibni ta'minlaydi, maxsus bolalar muassasalaridagi o'rta va kichik xodimlarga nutq madaniyatini o'rgatadi, qator hollarda, masalan, maxsus bolalar uylari sharoitlarida barcha o'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqaradi. Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni talaffuz malakalarini shakllantirishning asosiy maqsadi, nutq tovushlarini to'g'ri shakllantirishdir. Nutq tovushlarini to'g'ri tiklash uchun bola quyidagilarni bilishi lozim: nutq tovushlarini bilishi va ularni idrokida aralashtirib yuborishi kerak emas /bir tovushni ikkinchisidan akustik belgisi bo'yicha ajrata bilishi/; normal talaffuz qilingan tovushdan noto'g'ri talaffuz qilingan tovushni ajrata bilishi; o'zi talaffuz qilgan tovushni eshitib nazorat qila bilishi va sifatini baholashi; tovushni normal /**effektini**/ akustik effektini hosil qiluvchi artikulyatsion holatni bajara olishi; nutqning hamma turlarida tovushlardan o'rinli foydalanishi lozim.

Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini talaffuz malakalarini shakllantirish surdopedagog bolani to'g'ri talaffuzga o'rgatishi uchun nihoyatda samarali yo'l topishi lozim.

Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini talaffuz malakalarini shakllantirishning muvaffaqiyatli sharoiti talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun yaxshi sharoitlar yaratib beradi: surdopedagogning bola bilan emostional kontakti; mashg'ulotlarni qiziqarli shaklda tashkil qilish va charchashga yo'l qo'ymaydigan ish tizimida olib borish.

Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini talaffuz malakalarini shakllantirish jarayonida didaktik materiallardan keng foydalaniladi. Talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etish muddati bir qancha faktorlarga bog'liq: nuqsonning murakkablik darajasiga, bolaning yosh va individual xususiyatiga, mashg'ulotning muntazamligiga, otalar tomonidan beriladigan yordamga. Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini talaffuz malakalarini

shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, har bir bosqichda surdopedagogik ta'sir umumiy maqsadiga qarashli bo'lgan aniq pedagogik masala echiladi.

Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini talaffuz malakalarini shakllantirishning vazifa va maqsadlaridan kelib chiqib, quyidagi bosqichlarga ajratishni muhim deb topildi; tayyorlov bosqichi boshlang'ich talaffuzda bilim va ko'nikma (malaka)larni shakllantirish bosqichi.

Tayyorlov bosqichi. Bu bosqichning asosiy maqsadi bola diqqatini maqsadga qaratilgan surdopedagogik jarayonga qaratish. Buning uchun bir qator umumpedagogik va maxsus pedagogik masalalarni echish lozim.

Muhim umumpedagogik masalalardan biri yakka mashg'ulotlar yo'nalishini shakllantirishdir: surdopedagog bolani yakka mashg'ulotlar jihozlariga, muhitiga o'rgatishi, bolada mashg'ulotga nisbatan qiziqish va hohish uyg'otish lozim. Bolalarda notanish odamlarga nisbatan uyalish, tanglik, indamaslik ba'zi hollarda hatto qo'rquv hollari ham kuzatiladi. Surdopedagogdan asosan xushmuomilalilik talab qilinadi; bola bilan munosabatda rasmiyatchilik, qattiq qo'llik qilish kerak emas.

Bola mashg'ulot qoidalariga rioya qilishi, surdopedagog bergan topshiriqlarni bajarishni, muloqotga faol ravishda kirishishni o'rganishi kerak. Mashg'ulotlarga tushungan holda, erkin faoliyat shaklida yondashishni shakllantirish lozim.

Tayyorlov bosqichining muhim masalalaridan biri erkin diqqat, xotira, fikrlash operastiyalarini, analiz va sintez, taqqoslash, xulosa chiqarish operastiyalarini rivojlantirishdir.

Maxsus surdopedagogik ishlardan biri tovushlarni bir-biridan ajratishga, tanishga, artikulyastiyani shakllantirishni bilish va ko'nikishga o'rgatishdir.

Artikulyastion bazani shakllantirish uchun bir qancha mashqlar turi, metodik tavsiyalar, talaffuzni to'g'rilash uchun qo'llanma va didaktik talablar ishlab chiqilgan.

Zaif eshituvchi bolada nutq uchun maxsus bo'lgan artikulyastion organlar harakatining ayrimlari shakllanmagan. Artikulyastion organlar harakatining shakllanish jarayoni erkin va tushungan holda amalga oshadi: bola vazifani to'g'ri bajarishga va artikulyastion organlar harakatini nazorat qilishga o'rganadi. Zarur bo'lgan harakatlar oldin ko'rsatilib taqlid qilish asosida shakllantiriladi: surdopedagog oyna oldida bolaga tovushning to'g'ri artikulyastiyasini ko'rsatadi, tushuntiradi, qanday harakatlarni bajarishni ko'rsatadi va qaytarishni so'raydi. Ko'rish nazorati ostida bir necha marta qaytarish natijasida bola to'g'ri (kerakli) vaziyatni egallashga erishadi. Agar bola qiynalsa surdopedagog zond yoki shpatel bilan yordam beradi. Keyingi mashg'ulotda ko'rsatmasiz og'zaki instrukstiya bo'yicha qildirishga xarakat qilish kerak. Keyinchalik bola to'g'ri bajarayotganini kinestik sezgisi asosida tekshirishi mumkin. Bola qachon artikulyastiyani ko'rsatmasiz, bexato bajarsa, shunda o'zlashtirib olgan bo'ladi. Tovush talaffuzini to'g'ri shakllantirish davrida, shu tovush ustida ishlanayotganligi haqida eslatish kerak emas.

Surdopedagog mashg'ulot davomida, bola kerakli tovushni talaffuz qilish uchun to'g'ri vaziyatni egalladimi, yo'qmi tekshiriladi. Buning uchun surdopedagog boladan to'g'ri vaziyatni egallagan holda nafas chiqarishini (qattiq puflashni) so'raydi. Kuchli nafas chiqarish natijasida intensiv shovqin hosil bo'ladi. Agarda shovqin kerakli tovushning (undoshning) akustik effektiga mos kelsa vaziyat to'g'ri tanlangan bo'ladi. Agar bunday bo'lmasa, unda surdopedagog boladan artikulyastion organ vaziyatini o'zgartirishini so'raydi (bir oz ko'tarish, tushirish, tilni xarakatlantirish) va yana puflatadi. Muvaffaqiyatli natijaga erishmaguncha bajartiriladi.

Ba'zi hollarda bola hosil bo'lgan shovqinga quloq solib uni normal tovush bilan tenglashtiradi va xatto mustaqil ravishda nutqiga kiritishga harakat qiladi. Bu har bir ham yaxshi natijaga olib kelmaydi. Shuning uchun bunday hollarda surdopedagog bola diqqatini boshqa holatga qaratadi.

Zaif eshituvchi o'quvchilarga artikulyastion mashqlar o'tkazish uchun kerakli bo'lgan talablar:

1. Talab qilingan vaziyatni egallay bilish, shu vaziyatda tura bilish (olish), shu vaziyatni sakrab turish, bir vaziyatdan ikkinchisiga o'ta bilish.

2. Artikulyastion motorikani rivojlantiruvchi mashqlar tizimiga statik mashqlar kabi nutq xarakatining dinamik koordinastiyasini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni ham kirgizishi lozim.

3. Lab va til harakat mashqlarini birga olib borish zarur, chunki bu organlar tovushlarni talaffuzida birgalikda ishtirok etishadi, bir-biriga moslashadi (bu ko'rinish nikoartikulyastiya deyiladi).

4. Bola toliqib qolmasligi uchun mashg'alotlar qisqa, lekin ko'p marta o'tkazilishi lozim. Orada boshqa ish turi bilan shug'ullanish lozim.

5. Kinestik sezgini, kinestik analiz va tasavvurni shakllantirishga katta e'tibor berish kerak.

6. Xarakatlarni o'zlashtirish bilan birga, tovushlarni realizastiya qilish uchun logoped boshqa tovushlarga kerak bo'lgan xarakatlar ustida ishlashga o'tadi.

Artikulyastiya gimnastikasining maqsadi, tovushlarni to'g'ri talaffuz etish uchun zarur bo'lgan artikulyastiya a'zolarini to'liq, aniq keltirish va oddiy sharakatlarni murakkab xarakatlarga-turli xil fonemalarning artikulyastiya tartibiga birlashtirishdan iboratdir.

Hamma artikulyastion mashqlari tizimini ikki turga bo'lish mumkin: statik va dinamik. Statik mashqlarda artikulyastiya a'zolari turli holatlarga keltiriladi, lekin xarakat bo'lmaydi. Dinamik mashqlarda artikulyastiya a'zolari turli holatlarga va shu bilan birga xarakatga keltiriladi.

Mashqlarning nomlari shartli, lekin bolalarning ularni eslab qolishlari juda muhimdir. Chunki, birinchidan, nomlar bolada o'tkaziladigan mashqqa nisbatan qiziqish uyg'otadi, ikkinchidan, vaqtni tejaydi, surdopedagogga har safar mashqlarni bajarish usulini takror tushuntirishga hojat qolmaydi, bolaga bajarilishi kerak bo'lgan mashqning nomini aytish kifoya.

Statik tayyorgarlik mashqlari

1. «Belkurakcha». Til keng holda chiqarilib, bo'shashtiriladi va pastki lab ustiga qo'yiladi. Bunda til titramasligi kerak. Til shu holda 10-15 daqiqa ushlab turiladi

2. «Kosacha». Og'iz keng ochiladi, til keng chiqarilib yuqoriga ko'tariladi. Til yuqori tishlar tomon olib boriladi, lekin ularga tekkizilmaydi. Shu holda til 10-15 daqiqa ushlab turiladi

3. «Ninacha». Og'iz ochiladi. Til oldinga tomon ingichka qilib chiqariladi. Shu holatda 15 daqiqa ushlab turiladi

4. «Tepacha». Og'iz yarim ochiladi. Tilning orqa yonlari yuqori jag' tishlar bilan qisiladi. Tilning uchi pastki oldingi tishlarga tiraladi. Bu holat 15 daqiqa ushlab turiladi

5. «Naycha». Til keng holda chiqariladi. Tilning ikki yon tomoni yuqori tomon buklanadi. Hosil qilingan naychadan puflanadi.

Aytib o'tilgan mashqlarning har biri aniq, sekin 8-10 marta bajariladi.

Dinamik tayyorgarlik mashqlar

1. «Soatcha». Til uzun-ingichka qilib chiqariladi. So'ng shu holda til og'izning o'ng burchagidan chap burchagi tomonga qarab xaraaktga keltiriladi. Mashq 15-20 marta bajariladi

2. «Ot». Til tanglay tomon so'rilib, so'ng qo'yib yuboriladi. Shunda til taqillagan ovoz chiqaradi. Tilni taqillatish sekin va kuchli bo'lishi kerak. Bu mashq 10-15 marta bajariladi

3. «Qo'ziqorin». Og'iz ochiladi. Til tanglay tomon so'riladi, shunda til tanglayga qattiq jipslashadi. Bu holda til ushlab turiladi, shu vaqtning o'zida pastki

jag' pastga tomon tushiriladi. Bu mashq 10-15 marta bajariladi. Bu mashqning «Ot» mashqidan farqi shuki, til tanglayga jipslashgach, qo'yib yuborilmaydi.

4. «Arg'imchoq». Til uzun-ingichka qilib chiqariladi, so'ng navbatma-navbat goh burun, goh iyak tomon olib boriladi. bU vaqtda og'iz bekitilmaydi. Mashq logoped sanog'i ostida 10-15 marta bajariladi

5. «Mazali murabbo». Til keng holda chiqariladi, so'ng yuqori lablar yalanadi va til og'iz ichiga olinadi. Bu mashq 10-15 marta qaytariladi

6. «Bo'yochi». Til chiqariladi, og'iz yarim ochiq holda bo'ladi. Til bilan avval yuqori lab, so'ng pastki lab aylana bo'ylab yalanadi. Bu mashq yo'nalishni o'zgartirgan holda 10 marta bajariladi

7. «G'altak». Til uchi oldingi pastki tishlar orqasiga tiraladi. Tilning orqa yon tomoni yuqoridagi jag' tishlar bilan qisiladi. Keng til oldinga chiqariladi, so'ng yana og'iz ichiga olinadi. Bu mashq 15 marta bajariladi.

8. Har bir tovushlarni to'g'ri talaffuzga qo'yishda logoped aytib o'tilgan mashqlardan faqat zarur deb hisoblanganlarini tanlab oladi. Tanlab olingan mashqlar quyilishi lozim bo'lgan tovush artikulyastiyasiga mos kelmog'i lozim.

Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini talaffuz malakalarini shakllantirish bosqichining maqsadi maxsus tanlangan nutq materialini bo'yicha bolada tovushni to'g'ri talaffuzini boshlang'ich bilimlarini shakllantirishdan iboratdir. Tovushlarni nutqqa qo'yish, nutqda ulardan to'g'ri foydalanish malakalarini shakllantirish, tovushlarni tanlay bilish, o'zaro almashtirib yubormaslik (tovushlar differentsiastiyasi) aniq masala bo'lib hisoblanadi. Ko'rsatilgan masalalarni yakka mashg'ulotlar jarayonida echish zaruriyati, nutqni talaffuz tomonini ontogenetik egallash qonunidan kelib chiqadi.

Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni boshlang'ich sinf o'quvchilari bo'lgan bolalarni talaffuz malakalarini shakllantirish jarayonida oldin yangi tovush eski tovush bilan parallel ravishda ishlatiladi (almashtirilgan tovush), bunda oldingi ya'ni eski tovush yangisiga qaraganda tez-tez ishlatiladi. Keyinchalik yangi tovush tez-tez ishlatiladigan bo'ladi, bir qancha vaqtdan keyin esa u eski tovushni

siqib chiqarib hamma vaziyatda ham o'zi ishtirok etadi, keyinchalik uni nutqdan umuman siqib chiqaradi va shundan so'ng yangi tovushni eski tovush bilan birga differentsiatsiya qilish jarayoniga o'tiladi. F.F.Rau yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini talaffuz malakalarini shakllantirish ishlarida tovushlarni nutqqa qo'yishni uch usulini ko'rsatadi: taqlid (imitativ), mexanik (yordam) va aralash.

Birinchi usul- surdopedagogdan eshitgan tovushga mos qilib bolaning ongli ravishda shu tovush artikulyatsiyasini topishga va talaffuz qilishga urinishiga asoslangan. Bunda bola akustik tayanchdan tashqari ko'rish, taktil va fikrlash sezgilardan ham foydalanadi. Taqlid usulda asosan artikulyatsion organing holati qanday bo'lishi kerakligi haqida surdopedagog og'zaki tushuncha beradi. Izlanuvchanlik sirg'aluvchi, jarangli tovushlarni postanovka qilishda yaxshi natijalar beradi. Ba'zi bir tovushlar esa, masalan: sonor «r», «l», affrikatlar «ch», til orqa «k», «g», «x» tovushlar ko'pincha boshqa usuldan foydalangan holda muvaffaqiyatli qo'yiladi.

Ikkinchi usul-maxsus zond yoki shpatel bilan artikulyatsion organga mexanik ta'sir etishga asoslangan. Surdopedagog boladan bir tovushni aytishni va shu tovushni bir necha marta takrorlashini so'raydi, takrorlash vaqtida zond yoki shpatel yordamida tovushning artikulyatsion holatini o'zgartiradi. Natijada boshqa tovush hosil bo'ladi.

Bu usulda bolaning artikulyatsion organlari surdopedagog harakatlariga bo'ysunadi, bola mustaqil amalga oshira olmaydi. Uzoq shug'ullanishdan keyin bola mexanik yordamsiz kerakli vaziyatni egallay oladi, o'ziga shpatel yoki qo'li bilan yordam bergan holda.

Uchinchi usul-oldingi ikkita usulni birga olib borilishiga asoslanadi. Taqlid va tushuntirish bunda asosiy rolni o'ynaydi. Mexanik usuldan qo'shimcha ravishda foydalaniladi.

Surdopedagog bolaga kerakli tovush hosil bo'lishi uchun nima qilish kerakligini tushuntiradi: masalan til uchini ko'tarish (agarda bu holat bola tomonidan normal ravishda bajarilmasa).

Bu usulda bola faollashadi, surdopedagog tomonidan ko'rsatilgan yordam natijasida kerakli vaziyat uning xotirasida qoladi va keyinchalik ham mexanik yordamsiz bimalol bajara oladi.

Tovush nutqqa qo'yilgandan so'ng uni nutqqa kiritish ustida ish olib boriladi, avtomatizastiya qilinadi. Tovushni avtomatizastiya qilish jarayoni maxsus tanlangan, fonetik tarkibi oddiy va buzilgan tovushlar ishtirok etmagan so'zlarni mashq qilish asosida olib boriladi. Tovushning so'zdagi o'rnini aniqlanadi: boshida, o'rtasida yoki oxirida. Birinchi bo'lib so'zning boshida kelgan tovush ustida ishlanadi, keyin so'zning oxirida kelgan, so'ngra so'zning o'rtasida kelgan tovush ustida ishlanadi. Tovushni analizi va sintezi ustida ishlash katta yordam beradi.

Ko'pincha bola avtomatizastiya jarayonidayoq qo'yilgan tovushni mustaqil ravishda o'z nutqiga kirgiza boshlaydi. Agar bola tovushni boshqasi bilan almashtirmasa, keyingi ishini keragi yo'q. Surdopedagog amaliyotida bir tovushni avtomatizastiya qilib bo'lgandan keyin ham uning ustida ishlashni talab etadigan hollar ham uchraydi, tovushlarni differentsiastiyasi ustida ish olib boriladi. Bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni to'g'rilash tovushlarni to'g'ri yo'lga qo'yish va ularni g'ayri ixtiyoriy ravishda to'g'ri aytadigan bo'lish va ayni vaqtda fonematik idrokni ham rivojlantirishdan iboratdir. Chunki fonemalarni to'liq idrok etmay, ularni aniq farq qilmay turib ularni to'g'ri talaffuz qilish ham mumkin emas.

Fonematik idrokni rivojlantirish surdopedagogik ishning dastlabki davrlaridanoq olib boriladi va frontal, yakka tartibda hamda guruh mashg'ulotlarida o'yin formasida o'tkaziladi.

Bu ish avval nutqsiz tovush materiallaridan boshlanadi va sekin asta nutqdagi hamma tovushlarni o'z ichiga oladi.

Birinchi mashg'ulotlardananoq fonematik idrokni rivojlantirish bilan parallel ravishda eshitish diqqati va eshitish xotiralari ustida ish olib boriladi. Bu esa fonematik idrokni rivojlantirishda eng samarali va jadallashtirilgan natijalarga erishishga imkon beradi. Bu juda muhimdir, chunki atrofdagilar nutqini eshita bilmaslik tovushlarni to'g'ri talaffuz eta olmaslik sabablaridan biridir.

Yakka mashg'ulotlar jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'z talaffuzini nazorat qila olishi va o'z nutqini atrofdagilar nutqiga taqqoslash asosida talaffuzidagi kamchiliklarni to'g'rilay olish malakasiga ega bo'lishi kerak.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini talaffuz malakalarini shakllantirish jarayoni o'z ichiga korrekstion ta'lim vazifalarini oluvchi pedagogik jarayondan iborat. Korrekstion ta'lim jarayonida ko'yidagi umumdidaktik tamoyillarga katta ahamiyat beriladi: talimning tarbiyalovchi xususiyati, ilmiylik, sistemalilik, ketma-ketlilik, ko'rgazmalilik, tushunarlilik va faollik, mustaxkamlilik, yakka yondoshish. Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni talaffuz malakalarini shakllantirishda maxsus tamoyillarga ham asoslanadi: etiopatogenetik (nutqiy nuqson etiologiyasi va mexanizmini hisobga olish), sistemalilik va nutqiy nuqson tuzilishini hisobga olish, komplekslilik, differentsial yondoshish, shaxs xususiyatlarini hisobga olish, faoliyatli yondoshish, ontogenetik tamoyil, tabiiy nutqiy muhit sharoitida nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish. Yakka mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar talaffuz malakalarini shakllantirish nutqiy nuqsonlarni bartaraf etishda etiologik omillarni hisobga olish etiologik omillarni hisobga olish juda muhim. Zaif eshituvchi bolalar talaffuz malakalarini tadqiq qilish jarayonida tadqiqot guruhidagi bolalarga faol lug'atni o'rganishda rasmlar taklif etildi hamda ularning mazmuniga ko'ra savollar berildi

(Kim bu? Bu nima? Nima qilyapti? Qanday?). Zaif eshituvchi o'qquvchilarga stol, sher, g'oz, konfet, qo'g'irchoq, bayroq, jo'ja, shar, karam, qor, choy, soat rasmlari taklif etildi hamda ularning mazmuniga ko'ra soollar berildi. Rasm mazmuniga oid berilgan savollarga bolalar tomonidan qanday javob berilgan bo'lsa, qaror-qaydnomalarda shundayligicha hech bir o'zgarishsiz aks ettirildi. Zaif eshituvchi bolalar talaffuzidagi me'yordan chetga chiqishlar, eshitishning pasayishi bilan bog'liq holda, ushbu tovushlar idrokining chegaralanishi oqibatida yuzaga keladi. Shu sababli o'quvchilarning talaffuz malakalari haqidagi dalillarni ularning faol lug'atini o'rganish jarayonida olingan ma'lumotlarga tayangan holda keltirdik. Dastlabki ta'lim yilida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining yakunida nazorat va tajriba-sinov guruhlarida o'quvchilar talaffuz malakalarini rivojlanganlik darajasi tajriba-sinov avvaliga qaraganda o'zgargan. Jumladan, tadqiqot yakunida yuqori ko'rsatkichga 60 % bolalar erishgan. Nazorat guruhida esa yuqori darajaga deyarli hech kim erishmagan

Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilar nutqiy muhitni ta'minlovchi sharoitlarda tarbiyalanishlari va har bir o'quvchining o'z va o'zaro faollashuvini nazarda tutuvchi ish shakllarining barchasida ishtirok etishlari lozim. Olingan natijalarning tahlili tadqiqot ilmiy farazlarining isbotini topganligini, qo'yilgan vazifalar hal etilganligini, shuningdek, ishlab chiqilgan tizimning sermahsul ekanligini ko'rsatdi. Maxsus maktab-internatlarda olib boriluvchi nutqni rivojlantirish jarayonida har bir bola eshitish muammosining mavjud holati va shaxsiy xususiyatlari hisobga olinib, yakka-yo'naltirilganlik tamoyiliga rioya qilinishi, bu toifa bolalar ta'lim-tarbiyasini amalga oshirish, takomillashtirish muammolarini hal qilishda nutqni reja asosida shakllantirish jarayoni markaziy o'rinni egallashi lozim.

XULOSA

Tadqiqot mavzusiga oid ilmiy manbalar sharhi va tajriba-sinovdan olingan natijalarning tahlili quyidagi xulosalarga kelishimiz uchun asos bo'ldi:

1. Eshitish qobiliyatining qisman buzilishi ham bola nutqining me'yorda rivojlanishiga, uning ijtimoiy hayotga uyg'unlashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Eshitish kamchiligini erta aniqlash va tashxis qilish, uni qayta tiklash, bunday bolalarga pedagogik yordam ko'rsatish dolzarb masaladir. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar taqdirini hal qilishda atrofdagilar yakdilligi zarur.

2. Maxsus ta'lim muassasasi o'quvchilarining yakka va yalpi tartibda qo'llanishga qaratilgan ovoz kuchaytirgich asboblari bilan ta'minlanishi chegaralanganligi sababli eshitish qobiliyatining pasayishi engilroq bo'lgan bolalar ham nutqdan kundalik muloqotda kam foydalan-moqdalar. Ularning so'zlashuv nutqi faqat mashg'ulotlarda namoyon bo'lmoqda. So'zlarning tovush tizimi va bo'g'in tuzilmasini eslab qolishdagi qiyinchiliklar tufayli mashg'ulot paytida va kundalik turmushda ko'p takrorlanadigan nutqiy material bolalarning faol nutqiga kirmagan. Maxsus maktab-internatlar o'quvchilari nutqiy rivojlanish darajasiga ko'ra turli toifadagi bolalardan tarkib topgan.

4. Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilar ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish ularning ona tilini egallash qonuniyatlarini, zaif eshituvchilik psixo-lingvistik asoslarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Respublikamizda zaif eshituvchi bolalar bilan maxsus korrekstion-rivojlantiruvchi ishlarni olib boruvchi mutaxassislarning etarli emasligi ta'lim-tarbiya sifatining pastligiga sabab bo'lmoqda.

5. Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilar ijtimoiy hayotga uyg'unlashuvining asosiy omili sifatida nutq rivojlanish darajasining tanlanishi pedagogik jarayon istiqbolini belgilash imkonini berdi. Nutqni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan tizim maxsus tashkil etilgan muloqot-predmetli-rivojlantiruvchi muhit sharoitidagina amalga oshirilishi zarurligini isbotladi.

Tadqiqot zaif eshituvchi bolalarning ta'lim-tarbiyasi borasidagi muammolar echimi ushbu jarayon markaziga nutqni rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan turli ish shakllari orqali amalga oshirilishini ko'rsatdi.

6. Korrekstion-kompensator hamda rivojlantiruvchi ta'lim jarayonida tarbiyalanuvchilarga differentsial (tabaqalashtirilgan) va individual (yakka tartibda) yondashish zarur. Tajriba-sinov ishlari tarbiyalanuvchilarning ijodiy faoliyati, qiziqishi va dunyoqarashini rivojlantirish ustida ish olib borish ular nutqini shakllantirishning muhim omili ekanligini yana bir bor tasdiqladi.

7. Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini boyitish, uni amaliy egallashlarining imkonini beruvchi yaxlit korrekstion-rivojlantiruvchi jarayon surdopedagoglar tomonidan puxta ishlab chiqilgan rejaga asoslangan (loyihalashtirilgan) holda, maqsadi hamda tarbiyalanuvchilarga ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari aniq belgilanishi asosida tashkil etilishi lozimligi aniqlandi.

8. Tajriba-sinov natijalari ishlab chiqilgan ish tizimining sermahsul ekanligini isbotladi. Har bir bolaning talafuz malakalarini rivojlanishida o'sish kuzatildi. Keng qamrovli yondashuvga asoslangan yangi ish tizimi zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim-tarbiyasi jarayonini takomillashtirish imkonini berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I.Ozbekiston Respublikasi Davlat Qonunlari.

- 1.Закон Республики Узбекистан от 18.11. 1991 г. № 422-XII «О социальной защищенности инвалидов». Новая редакция (утверждена законом Республики Узбекистан от 11.07.2008 г. № ЗРУ-162).
- 2.Закон Республики Узбекистан «О гарантиях прав ребенка». // Социальная защита молодежи и женщин с ограниченными возможностями. Материалы семинаров. – Ташкент, 2009 –С. 123-132.

II.Prezident I.Karimov asarlari.

3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. 2 – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 380 b.
4. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T.5 – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 384 b.
5. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6 – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 429 b.
6. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.– Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 636 b.
7. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat.– T.14. – Toshkent: O'zbekiston, 2006. – 280 b.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.

III.Asosiy adabiyotlar.

9. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.– Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti, 1993. – 223 b.
10. Avloniy, Abdulla. Turkiy guliston yoxud ahloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
- 11.Айтжанова Р.К. и др. Психолого-медико-педагогическое обследование детей дошкольного и школьного возраста. – Алматы: Колорит, 2000. –140 с.

12. Аксенова Л.А. Социальная педагогика в специальном образовании. – М.: Академия, 2001. – 124 с.
13. Алимходжаева Ф.Д. Роль дидактического материала в процессе развития речевого слуха слабослышащих школьников с глубоким речевым недоразвитием.: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М.: НИИДАПН. 1992. – 15 с.
14. Андреева Л.В и др. Сурдопедагогика. – М.: Просвещение, 1989. – 384 с.
15. Аюпова М.Ю. Преодоление фонетико-фонематической недостаточности у детей старшего дошкольного возраста (на материале узбекского языка).: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М.: МГПУ. 1992. – 16 с.
16. Баймуратова А.Т. Неслышащий ребенок: жизнь в тишине. – Алматы: РНПЦ САТР, 2002. – 88 с.
17. Басова А.Г., Егоров С.Ф. История сурдопедагогики. – М.: Просвещение, 1984. – 295 с.
18. Бекмуратов Н.Ш. Влияние жаркого климата на работоспособность учащихся школ глухих: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М.: НИИД АПН. 1989. – 17 с.
19. Белова Н.И. Специальная дошкольная сурдопедагогика. М.: Просвещение, 1985. – 128 с.
20. Bola huquqlari to'g'risida Konvenstiya. Xalqaro YuNISEF tashkiloti. – Toshkent, 1992. – 48 b.
21. Бородич А.М. Методика развития речи детей. – М.: Просвещение, 1981. – 255 с.
22. Боскис Р.М., Коровин К.Г., Синяк В. А. Формирование грамматического строя языка у тугоухих учащихся. – М.: Просвещение, 1955. – 130 с.
23. Боскис Р.М. Глухие и слабослышащие дети. – М.: Владос, 2001 – 316 с.
24. Боскис Р.М. Учителю о детях с нарушениями слуха. – М.: Просвещение, 1988. – 128 с.
25. Быкова Л.М. и др. Методика обучения русского языка в школе глухих. – М.: Владос, 2002. – 400 с.

26. Винарская Е.Н. Раннее речевое развитие ребенка и проблемы дефектологии. – М.: Просвещение, 1987. – 160 с.
27. Воспитательная работа в школе слабослышащих. Из опыта работы сурдопедагогов./ Под ред. Л.В.Никулиной. – М.: Просвещение, 1981.–39 с.
28. Выготский Л.С. Проблемы дефектологии.– М.: Просвещение, 1995.–527 с.
29. Выготский Л.С. Основы дефектологии. В 6-ти т.– М.: Педагогика, 1983.Т.5. – 368 с.
30. Гайнутдинов Х.М. Профориентационная и социальная адаптация выпускников школ глухих в условиях Узбекистана.: Автореф. дис...канд.пед. наук. – М.: НИИД АПН. 1990. – 18 с.
31. Гвоздев А.Н. Вопросы изучения детской речи.– М.:Педагогика,1991.– 471с.
32. Головчиц Л.А. Дошкольная сурдопедагогика. – М.: Владос, 2001.–304 с.
- 33.Головчиц Л.А. Расширение словарного запаса слабослышащих дошкольников. – М.: НИИД АПН, 1989. – 56 с.
34. Головчиц Л.А. Коррекционно-педагогическая помощь дошкольникам с недостатками слуха с комплексными нарушениями в развитии // Дефектология. – Москва, 2006. – № 6. – С.42-48.
35. Дадаходжаева Н.Х. Методика обучения слабослышащих школьников арифметическим действиям над многозначными числами.: Автореф. дис...канд. пед. наук. – Ташкент: ТГПИ. 1995. – 18 с.
36. Дьячков А.И. и др. Дефектологический словарь. – М.: Педагогика, 1990. – 477 с.
37. Егорова А.Н. Организация речевых конференций в школе-интернате для глухих детей. // Дефектология. – Москва, 2001. – № 5. – С.70-77.
38. Ерсарина А.К., Карелина О.Б., Халыкова Б.С. Раннее развитие ребенка. – Алматы, ООО Центр САТР, 1998. – 32 с.
39. Жинкин Н.И. Интеллект, язык и речь. / Нарушение речи у дошкольников. Сб. науч. тр. Института языка и литературы. – М.: Наука, 1992. – С. 9-31.

40. Зикеев А.Г. Развитие речи слабослышащих учащихся.– М. : Педагогика, 1996. – 240 с.
41. Зуева Л.Н., Шевцова Е.Е. Настольная книга логопеда. – М.: АСТ Астрель, 2005. – 398 с.
42. Зыков С.А. Методика обучения глухих детей языку. – М.: Просвещение, 1997. – 200 с.
43. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. –Toshkent: O'qituvchi, 2004. –100 b.
44. Кариева Р.М. Как уберечь слух ребенка. –Ташкент: ТГПИ им. Низами, 1989. – 17 с.
45. Козлов М.Я., Левин А.Л. Детская сурдоаудиология. – СП.б.: Медицина, 1998. – 224 с.
46. Комаров К.В. Методика обучения русскому языку в школе для слабослышащих детей. – М.: Просвещение, 1988. – 223 с.
47. Коровин К.Г. Практическая грамматика в системе специального обучения слабослышащих детей языку. – М.: Педагогика, 1996. – 255 с.
48. Королева И.В., Пудов В.И., Зонтова О.В. Реабилитация постлингвальных детей и взрослых с кохлеарными имплантатами // Дефектология – Москва, 2001. – № 5. – С.21-34.
49. Корсунская Б.Д. Воспитание глухого дошкольника в семье. – М.: Просвещение, 1990. – 192 с.
50. Лапшин В.А., Пузанов Б.П. Основы дефектологии. – М.: Просвещение, 1990. – 143 с.
51. Леонгард Э.И., Самсонова Е.Г. Развитие речи детей с нарушенным слуха в семье. – М.: Просвещение, 1991. – 319 с.
52. Львов М.Р. Методика развития речи младших школьников. – М.: Просвещение, 1985. – 176 с.
53. Mo'minova L., Qahramonova M. Logopediya terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1988. – 48 b.

54. Mo'minova L.R., Nurkeldieva D.A. 5-7 yoshli bolalarning maktab ta'limiga tayyorligini tekshirish dasturi. – Toshkent: RTM, 1996. – 60 b.
55. Nazarova D. Surdopedagog va ota-onalar hamkorligi // Boshlang'ich ta'lim. – Toshkent, 1999. – № 3. – B. 44-45.
56. Nazarova D. Maxsus pedagogika fanini o'qitishda ta'limning faol usullaridan foydalanish // A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI 70 yilligiga bag'ishlangan Axborotnomaning yubiley soni. – Toshkent, 2004. – B.90-92.
57. Nazarova D. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limini takomillashtirish. // Bolani maktabga tayyorlash sifat va samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy echimlari. Xalqaro ilmiy- amaliy konferenstiya materiallari. – Toshkent, 2007. – B. 60-63.
58. Николаева Т.В. О международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы сурдопедагогики XXI века» // Дефектология. – Москва, 2007. – № 3. – С.87-92.
59. Нуркельдиева Д.А. Методы определения речевой готовности умственно отсталых детей к обучению в школе.: Автореф. дис. ...канд.пед.наук.– Ташкент: ТГПИ им.Низами.2001. – 21 с.
- 60 .Nurmuxamedova L.Sh. Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari.: Ped. fan. nomz.dis. ... avtoref. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU. 2005. – 26 b.
61. Fayzieva U.Yu. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o'rgatish.: Ped. fan.nomz.dis.avtoref.... – Toshkent: TDPI. 1994.– 18 b.
62. Fayzieva U.Yu. Nutq o'stirish. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 135 b.
63. Fayzieva U. Maktabgacha yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2006. – 74 b.
64. Хамидова М. П. Основы коррекционно-педагогической работы по обогащению словарного запаса умственно отсталых детей дошкольного возраста.: Автореф. дис...канд. пед. наук. – Ташкент: ТГПИ. 2001.– 20 с.

65. Шеремет М.К. Формирование готовности слабослышащих детей к школьному обучению.: Автореф. дис... канд. пед. наук. – М.: НИИД АПН. 1979.–17 с.
66. Шматко Н.Д., Пелымская Т.В. Если малыш не слышит.– М.: Просвещение, 2003. – 255 с.
67. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Istiqlol,2006.– 299 b..
68. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi.–Toshkent: Sano-Standart, 2004.– 147 b..
69. Qodirova F.U. Boshlang'ich sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilar nutqini shakllantirish.: Ped. fan. nomz. dis. avtoref...– Toshkent:TDPU. 2006. – 20 b.
70. [http: // www.defektologi.ru /](http://www.defektologi.ru/)